

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya va tillarga o'qitish fakulteti

O'zbek tili yo'nalishi

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

O'zbek filologiyasi yo'nalishi 4- bosqich 404 – guruh talabasi

YADGAROVA DILAFRUZ

Andijon adabiy muhiti istiqlool davri o'zbek adabiyotining

muhim tarmog'i sifatida

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:

Filologiya fanlari nomzodi,dotsent

H.Karimov

Andijon - 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	3 - 9
--------------------	--------------

I.Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti.

I.1.Istiqlol davri adabiyoti.....	10 - 13
--	----------------

I.2.Andijon adabiy muhiti.....	14 - 17
---------------------------------------	----------------

II.Andijon muhitidagi ijodkorlarning mustaqillik davri ilhomlari.

II.1.Olimjon Xoldor ijodida mavzu rang – barangligi.....	18 - 24
---	----------------

II.2.To'lan Nizom ijodida vatan mustaqilligi mavzusi.....	25 - 35
--	----------------

II.3.Tursunoy Sodiqova ijodida obrazlilik.....	36 - 42
---	----------------

II.4. Halim Karim – Istiqloldan ilhomlanib.....	43 - 47
--	----------------

II.5. Nabi Jaloliddin she'rlarida vatan va ishq tarannumi...	48 - 55
---	----------------

III.Xulosa.....	56 -59
------------------------	---------------

IV.Foydalanilgan adabiyotlar

ro'yxati.....	60 -61
----------------------	---------------

Kirish

Adabiyot – xalq mulki. U inson hayotida alohida ahamiyatga ega. Inson bor ekan, adabiyot ham bo'ladi. Adabiyotning o'lmasligini ta'minlovchi ikkita qudratli omil bor. Ularning biri adabiyotning g'oyat buyuk tarbiyaviy – ma'rifiy ahamiyati bo'lsa, ikkinchisi, uning insonlarga zavq – shavq berish xususiyatiga egaligidir. Badiiy adabiyot inson sezimlariga, his tuyg'ulariga ta'sir o'tkazadi, uning olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitadi, ko'nglini poklikka chulg'aydi, ezgu ishlarga kamarbasta qiladi, millat, yurt oldidagi javobgarlik hissini tuyish, burch va sadoqat tuyg'ulariga sodiq bo'lishga o'rgatadi. Badiiy adabiyot insonning nozik didli, yuksak farosatli, ma'naviy yetuk bo'lishini ko'zda tutadi. Asrlar osha qalb xazinasida asrab – avaylab kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, urf – odatlarimiz, milliy g'urur, iftixor, or – nomus, insoniylik sha'ni, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ezgu g'oyalar badiiy adabiyotning mag'iz – mag'ziga singdirilgan bo'ladi. O'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, uning aqlan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishini tamin etishda badiiy adabiyotning ham alohida o'rni, xizmati, ta'sir kuchi mavjud. Avvalo, yosh avlod tarbiyasi mamlakatimiz siyosatining eng ustuvor masalasiga aylanganini, davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini alohida e'tirof etish zarur.

Muhtaram Yurtboshimiz o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch asarida bu haqida shunday yozadilar: “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro' – e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib – o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”¹

Har bir millat, har bir xalq o'z avlodining har tomonlama yetuk bo'lishini, dunyo xalqlari orasida sira kam bo'lmasligini, millat sha'niga, obro' – e'tiboriga aslo dog' tushmasligini, aksincha, millat, xalq nomini ulug'likka, mashhurlikka

¹ I.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” – T: “Ma'naviyat”, 2011. 21-bet.

muhrlashini chin dildan istaydi va unga intiladi. Faqat ma'naviy yetuk, aqlan barkamol nasl – avlodgina bunday ezgu niyatlarni amalga oshirishga qodir bo'ladi. Badiiy adabiyot esa, ma'naviyat sarchashmasi, insoniy fazilatlar xazinasi, ulkan hayot maktabidir.

XX asrning boshlarida faoliyatlari yanada yuksalgan jadid adabiyotining vakillari, xususan, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon ona tilining, badiiy adabiyotning ahamiyatiga yuksak baho berganlar, ta'kidlaganlar, millat vakillarini ona tili va adabiyotni sevrishga, o'qib – o'rganishga chorlaganlar, uning bemisl kuch – qudratini e'tirof etganlar.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon o'z ijodining mohiyatini belgilab bergan “Adabiyot nadur?” maqolasida o'zining millat hayoti, vatan ravnaqida adabiyotning o'rni haqida o'ta jiddiy o'ylaydigan bilimdon o'spirin ekanligini namoyon etadi, ayni paytda, o'quvchining adabiyot mohiyati haqidagi tasavvurlarini yorqinlashtiradi: “Ha, to'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar birlan kirlashgan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar”²

Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Hifizi lison deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotining saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurg'on oinasi hayoti til va adabiyotidur. Millat tilini yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur”³

Inson ma'naviyatini, axloqini, insoniy fazilatlarini shakllantiruvchi vositalar juda ko'p. Avvalo, inson oilada voyaga yetadi, kamol topadi. Butun boshli millatning shakllanishiga ilk “g'isht” oilada qo'yiladi. Muhtaram Yurtboshimiz o'zlarining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida bu masala xususida bunday fikr yuritadilar:” Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini

2 A. Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”

3 I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T: “Ma'naviyat”,2011.25 -bet.

shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, shijoati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik, ezgulik, oliyjanoblik va mehr – oqibat, or – nomus va andisha kabi tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir”⁴

Mavzuning dolzarbligi. Har davr o'zidan oldingisidan yoki keyingisidan qaysidir bir jihati bilandir ajralib turadi. Har davrning o'z qiyofasi yurish – turishi bo'ladi. Adabiyotning tabiati keng: u hudud bilmaydi, millat tanlamaydi. Ayniqsa ezgulikka yo'g'rilgan, Olam sinoati, Odam kamoloti to'g'risida tafakkurga yorqin nur beradigan inson aqliy mehnatining mahsuli – ilmiy kashfiyot, nodir badiiy asarning makon va zamondagi sarhadi cheksizdir. Bunday buyuk kashfiyotlar, bebaho asarlarning voqe bo'lishiga, yuksak istedod va qobiliyat egalarining dunyoga kelishiga makon va zamonning ham ta'siri borligini sira unutmaslik kerak.

Dunyo xaritasida kichik bir nuqtada aks etgan Andijonning, andijonliklarning faxrlanishga arziydigan, g'ururlansa yarashadigan, har qancha maqtab, olqishlab ta'riflasa mubolag'a bo'lmaydigan buyuk insonlari, bebaho boyliklari, benazir qadriyatlari, urf – odatlari, betakror tabiati – inson uchun yaratilgan ne'matlarning barchasi bunda mavjud, muhayyo.

Istiqlol milliy adabiyotimizga yangi ruh berdi, ufqlarni kengaytirdi, erkin ijod imkoniyatini yaratdi. Adabiyot – ko'ngil mulkiga aylandi. Istedod egalarida o'z mahoratlarining barcha qirralarini ko'rsata olish imkoniyati paydo bo'ldi. Andijon adabiy muhiti ijodkorlari ham bundan ilhomlanib, yangi – yangi badiiyat namunalarini kitobxonlarga taqdim eta boshladilar.

Har bir adabiy muxlis, ayniqsa, so'zga oshno bo'layotgan, til va adabiyot fanining ilmiy – pedagogik sirlarini egallab, mutaxassis maqomiga ega bo'lmoqchi

⁴ I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T: “Ma'naviyat”, 2011. 52-bet.

bo'lgan talabalarning, avvalo, o'zi tug'ilib o'sgan viloyatidagi, tumanidagi, shahar va qishlog'idagi adiblari, istedad egalari to'g'risida zaruriy bilimlarga, ma'lumotlarga ega bo'lishi ma'naviy – ma'rifiy ehtiyojlardan biridir.

Vatan ostonadan boshlanadi. Kishi o'z kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproqning, Vatan deb atalmish tabarruk makonning barcha sir – asroridan: tarixidan, adabiyotidan, geografik joylashuvidan, unda yashovchi millat va elatlardan, yuksak iste'dodli kishilaridan boxabar bo'lishi, bu uning ma'naviy – ma'rifiy jihatdan yuksalishining asosi sanaladi.

Shu ma'noda, tadqiqot ishimiz nihoyatda dolzarb hisoblanib, Andijon farzandi, bo'lg'usi filolog sifatida o'z viloyatimiz, milliy adabiyotimizning uzviy bir qismi bo'lgan Andijon adabiy muhiti to'g'risida mukammal bilimga ega bo'lishimiz ham kasbiy, ham farzandlik va eng asosiysi insoniy burchimiz hisoblanadi.

Yetuk mutaxassis – filolog, avvalo, o'z atrofidagi adabiy muhitning bo'yini tuymog'i, his qilmog'i, uning sir – u asorlarini kashf etmog'i zarurdir. Aynan shu jihatlar tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Andijon yozuvchi va shoirlari hamisha elning nazarida, diqqat – e'tiborida bo'lganlar.

Hazrat Navoiy tomonidan “Andijonliq erdi”, deb e'tirof etilishi, Andijon nomining bu ulug' zot tilida yangrashining o'ziyoq har bir andijonlikning qalbini g'ururga to'ldirib yuboradi. Ushbu tazkirada nomi tilga olingan Mavloni Safoiy ijodining Navoiydek ulug' zot nazariga tushishi ham o'sha davrdagi Andijon adabiy muhiti haqida tasavvur hosil qilishimiz, fikriy xulosalar chiqarishimiz uchun qisman bo'lsa – da asos bo'lib xizmat qiladi.

Andijon yozuvchilari haqidagi bayoz Usmonjon Shukurov va Zahiriddin Muhiddinovlar (to'plab, nashrga tayyorlovchilar) mehnati bilan 2004 – yilda nashr yuzini ko'rdi. Unda 1932 – yilda tug'ilgan Olimjon Xoldor ijodidan boshlab, 1983 – yillar oralig'ida tug'ilgan, nomi andijonliklarga yaxshi tanish bo'lgan 90 nafar

ijodkor nomi tilga olingan, asarlaridan namunalar berilgan. Bayoz o'quvchiga Andijon adabiy muhiti haqida yorqin tasavvur qilish imkonini beradi. Shu yurtda tug'ilib, turli kasb – kor tutsa ham adabiyotga oshno bo'lgan, uni o'zining qismati deb bilgan istedod egalari to'g'risida bilim hosil qiluvchi nodir manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Istiqlol andijonlik ijodkorlarga qanot berdi, ijodiy parvoz ato etdi. Andijon adabiy muhitida qalam tebratuvchilarning, ijod qiluvchilarning safi juda ham kengaydi. Tadqiqot ishimiz doirasida fikr yuritadigan bo'lsak, Olimjon Xoldor, To'lan Nizom, Tursunoy Sodiqova, Halim Karim va Nabi Jaloliddin ijodida yuksalish, ijodiy barkamollik o'zining yorqin ifodasini topganini ta'kidlash zarur. Olimjon Xoldorning uch jildlik “Saylanma”⁵, To'lan Nizomning “Saylanma”⁶, Tursunoy Sodiqovanning “ Gul isi”⁷, Halim Karimning “Yurak bilan so'zlashuv”⁸Nabi Jaloliddinning “Hur nido” nomli ilk kitoblarini⁹, misol keltirishning o'ziyoq istiqlol ilhomining naqadar jo'shqinligidan dalolat berib turadi.

Kitobxonlarga taqdim etilgan bu adabiy bo'stonlarda shoir ijodiga zamondosh iste'dod egalarining – yurtga taniqli shoir, adabiyotshunoslarning munosabatlari, taqrizlari, fikrlari qayd etilgan. Masalan, To'lan Nizom ijodi haqida, To'lan Nizomning “Muqaddas ruh” kitobining muqaddimasida professor Naim Karimovning “Pokiza hayol” deb nomlangan fikrlari bayon etilgan. Bunday ijodiy munosabat, taqriz adabiy fikr, qarashlar ijodkor mahoratini, uning o'ziga xos uslubini, ijodiy yo'lini o'rganishda, ijodkor haqida ma'lum tasavvurlar hosil qilish yoki mavjud bilimlarni yanada boyitishda o'quvchi uchun muhim manbaa bo'lib xizmat qilishi tabiiydir.

Nabi Jaloliddin ijodi va ayniqsa, lirikasi o'zbek adabiyotshunosligida kam o'rganilgan. Uning badiiy mahoratini ochib berish barobarida o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'rinni belgilab berilishi, ijodiy merosi har tomonlama mukammal

⁵ Olimjon Xoldor. Saylanma, uch jildlik, - T: “Sharq”, 2003.

⁶ To'lan Nizom. Saylanma. – T: “Sharq”. 1998.

⁷ Sodiqova T. “Atirgul isi”, - T: “O'zbekiston”, 2007.

⁸ Halim Karim. Yurak bilan so'zlashuv. –T: “Akademnashr”, 2010.

⁹ Nabi Jaloliddin. Hur nido. – T: “Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1996.

tarzda o'rganilib, ilmiy mahoratiga yetarlicha baho berish ham biz yosh adabiyotshunoslarning oldida turgan katta vazifalarimizdan biridir.

Ishning maqsadi va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi istiqlol davrida andijonlik ijodkorlar – Olimjon Xoldor, To'lan Nizom, Tursunoy Sodiqova, Halim Karim, Nabi Jaloliddin ijodi misolida, ularning uslubiy mahorati, ijodlaridagi o'ziga xos xususiyatlarini, timsol yaratish san'ati, badiiy so'zdan foydalanish qudratini, iste'dod va talantini chuqurroq o'rganish, yangi qirralarni kashf etish, tadqiq qilish, ma'naviy – ma'rifiy ozuqa olishdan iboratdir.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

- andijonlik ijodkorlarining istiqlol davridagi ijodini o'rganish;
- Olimjon Xoldorning istiqlol davridagi asarlarini o'rganish, tadqiq qilish;
- To'lan Nizomning mustaqillik yillarida yaratgan asarlarini o'rganish, o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- Tursunoy Sodiqova ijodining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- Halim Karim ijodining ma'naviy – ma'rifiy xususiyatlarini, badiiy latofatini o'rganish;
- Nabi Jaloliddin ijodi, uning mohiyati, g'oyaviy badiiy xususiyatlari, she'riyatidagi ishq – muhabbat mavzusi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, istiqlol davridagi ijodining muhim qirralarini kashf etish;
- Andijon adabiy muhitida istiqlol davridagi ijodiy yuksalishlar, ijobiy o'zgarishlarni o'rganish va bularga munosabat bildirish.

Ishning ob'ekti va predmeti. Andijonlik ijodkorlarning istiqlol yillarida yaratgan asarlari, ijod namunalari, Olimjon Xoldor, To'lan Nizom, Tursunoy Sodiqova, Halim Karim va Nabi Jaloliddin ijodini o'rganish jarayoni, ular she'riyatidagi o'ziga xos xususiyat va mahoratlarini kashf etish.

Ishning ilmiy yangiligi. Andijon adabiy muhitining istiqlol davri adabiyotidagi muhim tarmog'i ekanligini, istiqlol davrida andijonlik ijodkorlar

ijodining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishning kengayishi, ularga munosabatning teranlashishi. Olimjon Xoldor, To'lan Nizom, Tursunoy Sodiqova, Halim Karim hamda Nabi Jaloliddin ijodining muhim qirralariga pedagog nigohi bilan qayta qaralib, ular ijodlarining muhim xususiyatlari kashf etiladi.

Ishning amaliy ahamiyati.

- Andijon adabiy muhiti haqidagi tasavvurlar, qarashlar, bilimlar yanada ortadi;
- yozuvchilar uslubini o'rganish, unga munosabat bildirish ko'nikma va malakalari mustahkamlanadi;
- Olimjon Xoldor, To'lan Nizom, Tursunoy Sodiqova, Halim Karim, Nabi Jaloliddin ijodini o'rganish ko'lami kengayadi;
- o'quv jarayonlarida, adabiy tadbirlarda, konferensiya, seminar va amaliy mashg'ulotlarda andijonlik yozuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish yuzasidan muhim qo'llanmalar, metodik tavsiyalar tizimini ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin;
- tadqiqot materiallari adiblarimiz ijodini o'rganish yuzasidan kelgusida amalga oshiriladigan malakaviy, yuksak tadqiqotlar uchun manbaa vazifasini o'tashi mumkin.

Ishning tuzilishi. Ish kirish, ishning umumiy tavsifi, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi betni tashkil qiladi.

I.BOB. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTINING

XUSUSIYATLARI

1.1.Istiqlol davri adabiyoti

Davr va adabiyot munosabati g'oyat murakkab muammodir. Chunki zamonning asosiy belgisi, uning tinimsiz harakatdaligi, o'zgarib turishi bo'lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o'zi yaratilgan zamonga qaraganda ko'proq yashashga intilishi, barqarorroq bo'lishga urinishidir. Istiqlol – mustaqillik, mustaqil, erkin bo'lish. Inson, millat, davlatning boshqalarga tobe bo'lmay, o'z erki bilan yashashi, o'zini – o'zi idora etishi; mustaqillik, erkinlik, milliy istiqlol¹⁰. Istiqlol – xalqimizning asriy orzusi, umidi, pokiza tilagi edi. Unga erishish o'z – o'zidan bo'lmadi, albatta. U kimlardir tomonidan beriladigan ehson yoki sadaqa emas. U xalqning kurashlarda toblanishidan, shirin jonidan kechishidan, matonat va qahramonlik, fidoiylilik ko'rsatishi natijalarida qo'lga kiritiladigan bebeho ne'mat, ulug' saodatdir.

Istiqlol sharofati tufayli respublikamizda keyingi yillarda ijtimoiy – iqtisodiy va ma'naviy sohalarda tarixiy burilish yuz berdi. Yangilanish va yuksalish jarayoni davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Ma'naviyat doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yadigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi”.¹¹

Istiqlol milliy adabiyotimizga yangi ruh berdi, ijod qilish erki, ko'ngil buyurganini yozish imkonini ato etdi. U endi qoliplarga solingan, kimlarningdir manfaati yo'rig'iga yuradigan tobe adabiyot emas. Uning o'z dunyosi, o'z aytar so'zi, olam va odam haqidagi falsafasi bor va uni o'z uslubida emin – erkin ayta olish huquqiga ega.

¹⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5- jild. – T: O'zbek milliy ensklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.2006. 239 – bet.

¹¹ Karimov I.”Adabiyotga e'tibor- ma'naviyatga, kelajakka e'tibor”-Toshkent, “O'zbekiston”,2009. 87- bet.

Xayriyatki, adabiyotimizda davr sinovlaridan muvaffaqiyat bilan o'tgan, inchunin, hozirgi kunlarda ham kitobxonlar tomonidan sevib o'qilib kelinayotgan ajoyib asarlar ko'p.

Professor Naim Karimov bu haqda fikr yuritib, haqli ravishda quyidagilarni yozgan edi: "XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug' asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko'p qon to'kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro'y bergan bo'lmasin, insoniyat huddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi... Bu asrda sodir bo'lgan barcha voqealar insoniyat tarixining ajralmas tarkibi. Ularning bizlarga maqbul bo'lmagan qismlarini yoddan chiqarishga, tarixdan o'chirishga urinish bemanilikdir... XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o'rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo'lmagan. XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyatning o'z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi".¹²

Atoqli munaqqid Ozod Sharfiddinov: "XX asrda bizda jahonning har qanday yuksak talablariga javob bera oladigan yuksak adabiyot yaratildi, deb baralla aytishimiz mumkin. Hikoyachilik, qissachilik, romannavislikda ham, she'riyatda ham dramaturgiyada ham buning isbotini o'nlab uchratish mumkin"¹³

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev istiqlol adabiyoti haqida quyidagicha talqin yuritadi: "Eng muhimi, yozuvchilar, olam, odam haqida avvalgidan o'zgacharoq fikrlash mumkinligini angladilar va o'zlari ham shunga ko'nika boshladilar. Istiqlol kishilarimiz ma'naviyatiga, dunyoqarashiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Odamlar bundan 10 – 15 yil avvalgi odamlardan juda ko'p jihatlari bilan farqlanadi: ularning olam va odam haqidagi qarashlari o'zgacha, dunyoni teranroq anglash, voqea – hodisalarning mohiyatini tushunib yetish, o'z fikrini aniq ifodalay olish – bularning barchasi yuksalishda, kun sayin o'zgarishdadir. Albatta, bunday yuksalish onlarida adabiyot bir chetda qo'l qovushtirib turgani yo'q. Endi

¹² XX asr mening taqdirimda. – "Jahon adabiyoti" jurnali, 2001 – yil, yanvar, 24- bet.

¹³ Sharafiddinov Ozod. Uch cho'qqining biri. – "O'zAS", 2001- yil, 23 – noyabr.

uning o'z aytar so'zlari, o'z fikrlari, hech kimga qaram bo'lmagan tuyg'ulari ijod yo'llari bor. Bunday imkoniyatni, erkni unga istiqlol berdi. Ma'lum qoliplarga solingan, kommunistik mafkuraning maqsadlariga xizmat qiladigan, hayotni faqat yorqin bo'yoqlarda aks ettirishga odatlangan, parda ortidagi hayotni xaspo'shlaydigan adabiyotning tomirlari bugun qirqildi.

Istiqlol davri adabiyoti tub sifat o'zgarishlarni boshdan kechirdi. U kommunistik mafkura yo'riqlarini obrazlar zimmasiga yuklash bilan shug'ullanadigan, voqelikni "tarixiy taraqqiyotda", ya'ni, provardida, kommunizmga keladigan tarzda ko'rsatish a'moli deb biladigan mafkuraviy yugurdaklik xizmatidan qutuldi. Shu tarzda badiiy adabiyot davlat adabiyoti bo'lmay qoldi.

Bugungi chinakam asarlar o'quvchiga aql o'rgatishga, uning uchun "hayot qo'llanmasi" bo'lishga urunmaydi, buni da'vo ham qilmaydi. U ko'proq sezgi, tuyg'u hosil qilishga yo'naltirilgan. Sevimli yozuvchimiz Abdulla Qahhor joyiga keltirib aytib qo'ygandek: "Bilgan bilib qo'yaverishi mumkin. His qilgan his qilib qo'yavermaydi". His qilish - munosabat, munosabat – faoliyat demakdir. Asl adabiyot faqat davrning muammolariga yechim topishdan, zamonaviy savollarga javob berishdan iborat bo'la olmaydi.

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotimizning mantiqiy davomi sifatida dunyoga keldi. Bu davr adabiyotiga xos belgilar o'tgan asrning 80-yillarida muayyanlashgan bo'lsa ham milliy adabiyotning alohida bosqichi sifatida to'liq shakllanishi 90 – yillarga to'g'ri keladi.

Mustaqillik davri milliy adabiyot taraqqiyoti tarixidagi oddiy xronologik bosqich emas, balki bir qator jiddiy o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan alohida badiiy – estetik hodisadir. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti tubdan o'zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli o'laroq tug'ildi. U yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo'lgan milliy ijod dahosining samarasi sifatida

dunyoga keldi. Ijtimoiy taraqqiyot yo'sinlarini, muayyan shaxs ruhiyati manzaralarini sinfiy kurash va partiyaviy yondashuvsiz ham tasvirlash natijasi bo'lib yaratildi¹⁴.

Andijon adabiy muhiti milliy adabiyotimizning uzviy, ajralmas bir bo'lagidir. Uning safi kundan – kunga iste' dodli, qalami o'tkir, badiiyat olami bilan o'z kitobxonini hayrat olamiga olib kira oladigan iste'dodlar bilan to'lib, kengayib bormoqda.

Ozodlik, mustaqillik, erkinlik so'zlari bilan ma'nodosh "istiqlol" so'zi nima uchun "milliy" tushunchasi bilan birgalikda " milliy istiqlol" tarzda qo'llaniladi? Shuni bilingki, ozodlik, birinchi navbatda, asrlar davomida mustamlaka va istebdod asoratida ezilgan xalqimiz ozodligidir. Hurriyat ona xalqimizning hurriyati, erkinlik ham shu xalqniki deganidir. "Milliy istiqlol", birinchi prezidentimiz I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, " buyuk ne'mat". U millatimizga tom ma'noda insoniylik, haq – huquqini qaytarib berdi, qaramlik, qullik, haqsizlik, tobelik va mustamlaka zanjirlaridan xalos qildi. O'zbekiston mutlaqo erkin va daxlsiz davlat sifatida bashariyat oilasidan qat'iy o'rin oldi. Bularning bari – istiqlol sharoitidan. Ana shuning uchun biz o'z ozodligimizni " milliy istiqlolimiz " deb ataymiz. Uni qadrlashga asrab – avaylashga, jism-u jonimiz bilan himoya qilishga tayyormiz.

Istiqlol adabiyotimizning jozibasi sirtida emas, botinida, matn zamirida. Bu adabiyotning asl namunalari osongina o'qilib ketaveradigan asarlar sirasiga kirmaydi. Bu asarlar o'quvchidan muayyan hozirlikni, intellektual – ruhiy zo'riqishni talab etadi. Odamga, olamga boshqacharoq nigoh tashlashni taqazo qiladi.¹⁵

¹⁴ Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. Adabiy o'ylar – T: "Yangi asr avlodi, 2006. 74 – bet.

¹⁵ Halim Karim. Andijondan esgan sabolar-"Hayot". Andijon. 2010. 24-bet.

1.2. Andijon adabiy muhiti.

Ma'lumki, adabiyot maydoniga qadam qo'ygan odam ijodkor mas'uliyatini, xalq jamiyat va tarix oldidagi burchini, vazifasini qanday tushunadi, qaysi yo'ldan boradi, qanday orzu – armonlari bor – hamma narsa shunga bog'liq. Ijodkor iste'dodini kamol topishi, bor imkoniyatini namoyon qila olishining ildizi shu hisoblanadi. Bugungi kun adabiyotimiz har jihatdan yangilanib, rivojlanib bormoqda. Mustaqillik davri adabiyotida, xususan, she'riyatida hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, insoniyat ruhiy olamidagi boy va rangin lahzalarni badiiy kashf etishga ham ishtiyoq, ham intilish kuchaydi, deyish mumkin. Shoir va nosir Qamchibek Kenja "Andijon yozuvchilari va shoirlari" bayozi muqaddimasida andijon adabiy muhiti haqida quyidagi fikrlarni yozadi: "Andijon adabiy muhiti o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos o'ringa, an'ana va salmoqqa ega. Hazrati Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ning ijodiy kamoli va shon – shuhratini turkiy Andijon tili bilan bog'lab, faxrlangani ham bejiz emas edi. Man shu chashmadan suv ichib, Navoiydan so'ng "eng ko'p va ho'p" yozgan shoir maqomini olgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o'zidan keying qalam ahli uchun ilhom bulog'i bo'lib xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda.

Andijon "ijod bazmi" qiziyotgan o'lkalardan biridir. Adibimiz Qamchibek Kenja yuqorida ta'kidlangan bayoz muqaddimasida "Bazmi ijod Andijon..." sarlavhasi ostida fikrlarini quyidagicha davom ettiradi: "Qo'qonlik mashhur shoir Zokirjon Furqat havas bilan "Tark o'lmas soqiysi gulchehra birla bandasi, Otkuncha to subhi Mahshar bazmi ijod Andijon", - deb baho bergan. Andijon adabiyoti qadimiy bo'lib, uning azaliy an'analari bor va bu an'analar yashab, davom etib, boyib kelmoqda. O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning: "Navoiy lahjasida so'zlagan Andijonsan", - degan ta'rifida ham bu yurt kishilari tili va dilining "qalam bila rost" ligida alohida ta'kidlanadikim – bu Andijon xalqi asli shoirdir, shunday bo'lishi tabiiydir.

Mustaqillik, istiqlool, shubhasiz, hamma jabhada bo'lgani kabi adabiyotda ham yangi ufqlar ochdi. Bosh mavzu- milliy, insoniy g'ururni ramzu ishoralar

bilan emas, baralla, oshkora faxr tuyg'ulari bilan ifodalash, o'zimizning asl Vatanimiz O'zbekiston va uning zahmatkash xalqi to'g'risida dilning chin tuyg'ularini bayon etish imkoni yuzaga keldi. Mustaqillik davri adabiyotida, xususan, she'riyatida hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, insoniyat ruhiy olamidagi boy va rangin iqlimlarmi badiiy kashf etishga ham ishtiyoq, ham intilish kuchaydi, deyish mumkin.

Andijonning buyuk siymolari bo'lmish, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Saida Zunnunova, Muhammad Yusuf va shular qatorida To'lan Nizom ham el sevgan, uning ardog'idagi shoirlardan biridir. U ham turli mavzularda she'rlar bitib qalamini charxlagan ijodkorlardan hisoblanadi. U ayniqsa Bobur ijodiga ixlosi balandligidan dastavval, ustoz g'azallariga muxammaslar bog'ladi, keyin unga bag'ishlab ko'plab she'rlar yozdi. Boburga bag'ishlab "Uch so'z" deb nomlangan doston yozgan. Shuningdek, To'lan Nizom mumtoz adabiyotimiz yo'nalishlarida ham samarali qalam tebratmoqda.

Andijon adabiy muhiti she'riyatining rivojida Nabi Jaloliddinning ham o'z hissasi bor. Uning she'riyatida xalqimizning buyuk o'tmishiga ehtirom, vatanga muhabbat, farzandning ota – ona oldidagi burchi, yurak qa'rida yotgan hissiyotlar, insoniy kechinmalar o'ziga xos tarzda kuylanadi. Shoirning ilk she'rlaridan tortib to shu kungacha yozgan asarlarini kuzatar ekanmiz, uning ijodidagi o'sish, badiiy va g'oyaviy yuksaklik, yangi zamon kishisining dard va quvonchlarini ko'ramiz. Nabi Jaloliddin she'riyati milliyligi, umuminsoniy ruhining teranligi bilan ajralib turuvchi she'riyat hisoblanadi. U xalq qalbiga, she'riyatga oshufta ko'ngillarga kirib kelgan. Chunki, uning she'riyati boshqa shoirlarni takrorlamaydigan, o'ziga xos badiiy usulda yangi timsollar yarata olgan, inson ruhiyatini tetiklashtiruvchi she'riyatdir.

Ana shu dalillarning o'zi viloyatda adabiy muhit, ijodiy ko'tarinkilik mavjudligidan dalolat beradi, deb o'ylayman. Keyingi avlod vakillari, allaqachon adabiyotimizning katta bog'iga eltuvchi o'z so'qmoqlarini topib olishgan

iste'dodlar shu davrda badiiyat dengizi sathiga chiqdilar. Demakki, o'zbek adabiyotining uzviy bir bo'lagi bo'lmish Andijon badiiy so'z san'ati kelajakda yanada rivojlanadi, gurkiraydi, kamol topadi va xalqimizning ma'naviy – axloqiy dunyosini boyitishga yanada ko'proq xizmat qiladi.¹⁶

Yuqoridagi fikr – mulohazalardan kelib chiqib mustaqillik davri o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, unda Andijon Adabiy muhitining o'rni, ahamiyati haqida quydagi fikrlarni keltirish mumkin:

- mustaqillik, istiqlol, shubhasiz, hamma jabhada bo'lgani kabi adabiyotda ham yangi ufqlar ochdi.

- istiqlol davri o'zbek adabiyoti, xususan she'riyatining mavzu ko'lamini va ifodasi yo'sini o'zgardi.

- bosh mavzu- milliy, insoniy g'ururni baralla, oshkora faxr tuyg'ulari bilan ifodalash, o'zimizning asl vatanimiz O'zbekiston va uning zahmatkash xalqi to'g'risida dilning chin izhorlarini bayon etish imkoni yuzaga keldi.

- keyingi yillar ijodkorlarda umumjahoniy adabiyot tajribalari bilan oshnolik, badiiyatning bosh mezoni va mohiyati – umuminsoniy, umrboqiy tuyg'ular, qalb tubidagi quvonchu g'alayonlar, iztiroblar talqinidan iborat bo'lishi zarurligini anglash, badiiy mahorat sir – asrorlari ichiga kirishga intilish tobora yaqqolroq ko'zga tashlanib bormoqda.

- mustaqillik andijonlik yozuvchilar ijodiga ham ijodiy barkamollik, olam va odam haqidagi tafakkurni o'z uslubi doirasida erkin ifodalash erkini berdi.

- Andijon adabiy muhiti milliy adabiyotimizning uzviy, ajralmas bir bo'lagi sifatida uning safi kundan – kunga iste'dodli, qalami o'tkir, fikri tetik, badiiyat olami bilan o'z kitobxonini hayrat olamiga olib kira oladigan iste'dodlar bilan to'lib, kengayib bormoqda.

¹⁶ Andijon yozuvchi va shoirlari.-A, "Hayot" nashriyoti,2004, 7-bet.

- Andijon adabiy muhiti haqida gap borganda, shubhasiz, Olimjon Xoldor, To'lan Nizom, Tursunoy Sodiqova, Halim Karim va Nabi Jaloliddin va boshqa yuzlab iqtidor sohiblarini e'zoz bilan tilga olamiz.

- Qolaversa Andijon farzandlari, hazrati Alisher Navoiy ijodini teran anglash va tadqiq qilish darajasiga ko'tarilgan Zokirjon Habibiy, Anisiy, Majruhiy, Ulfat, To'xtasin Jalolovlarni va ulsr bilan davrdosh, asrdosh Sayfiy, Oraziy, Komil Yashin, Saida Zunnunova, Vosit Sa'dulla, Hoshimjon Razzoqov, Boqir, To'xtash Ashurov, Muqimjon Niyozov, Ismoil To'lak, Muhammad Yusufklar nomini bugun el yaxshi bildi.

III.1.Olimjon Xoldor ijodida mavzu rang – barangligi.

O'tmishda shoiri bo'lgan xalq eng baxtli xalq hisoblanadi. Chunki xalq o'z alamlari, sevinchlarini shoirlariga aytgan yo bo'lmasa, xalqning yuragidagi orzu – niyatlarini o'z shoiri butun olamga, odamlarga she'riy til bilan yetkazgan.

Bizning zamonamizda bu boshqacharoq: istedodli shoiri bo'lgan xalqni bugun butun dunyo taniydi va biladi. Olimjon Xoldorni xalqimiz lirik shoir, falsafiy va publitsistik she'rlar muallifi, o'ziga xos balladalar, dostonlar ijodkori, dramaturg, qo'shiqchi shoir, yosh ijodkorlarning mehribon ustози sifatida yaxshi taniydi.

Olimjon Xoldor 1932 – yili 18- sentabrda Buloqboshi tumanining Kulla qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligi barcha qishloq bolalaridek daryo bo'ylarida mol – qo'y boqish, dalaga chiqish, ketmon chopish, g'o'zalarga suv tarash, paxta terish, ota – onasiga ko'maklashish kabi yumushlar bilan kechgan. Boshlang'ich ma'lumotni qishloqda bo'lgan to'liqsiz o'rta maktabda oladi. Shoir bolalik onlarini eslab “Biz urush yillari farzandlari “baxtli bolalik” ning nimaligini bilmay ulg'aydik. Maktabdoshlarim Mirzakamol, Muxtorjon, Sobirjon va boshqalar bilan shiyponlarda tunab qolib kechalarni she'r aytishib o'tkazardik. Kitob qo'ltig'imdan tushmasdi. Xalq dostonlarini yodlab yurgandim. O'qigan va aytib yurgan dostonlarim ta'sirida ko'rganlarimni qofiyalarga solardim, ammo ularni hech qachon, hech kimga ko'rsatmaganman va bildirmaganman”.

O'rta ma'lumotni Andijon shahridagi “O'qituvchilar bilim yurti”da oladi. So'ngra “Farg'ona Pedagogika instituti” ga hujjat topshirib kirolmagach, o'sha oliygoh rektori Kolosovga “o'qishim kerak” mazmunli she'riy ariza – maktub yozgach, shartli ravishda oliy o'quv yurtiga qabul qilinadi. Talabalik yillari davrida institut devoriy gazetasida chiqib turadi. 1952 – yilda “Sharq yulduzi” jurnalida bir turkum she'rlari bosilib chiqadi. Oliygozni tamomlab, qishloqda bir necha oygina muallimlik qiladi.

1962 – yilda Andijonda “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi”ning ko‘chma ijodiy kengashining yakunlovchi kuni Andijonda yashab qalam tebratayotgan yosh yozuvchi va shoirlarning dastlabki asarlari muhokama qilindi. Olimjon Xoldorning qo‘lyozmasi ustoz Mirtemirga berilib, u yoz shoir jiddiy izlansa, yana bir bor ko‘rib chiqsa deydi. Uzoq izlanishlar va tuzatishlar natijasida kitob 1965 – yili “Arg‘uvon tagida” nomi bilan bosiladi.

Arg‘uvon tagida, yor, seni kutdim.

Marvarid sirg‘alar o‘ynar boshimda.

Gullarning atrini entikib yutdim,

Yaproqlar shivirlar sekin, qoshimda.

Viloyatlarda yashab, ijod qilayotgan shoirlar ichida birinchi bo‘lib Olimjon Xoldorning rusiy zabonda ikki kitobi “ Vosmoe nebo Andijana”, “Vostochnoe tropi” to‘plamlari bosildi. Bularni moskvalik taniqli shoirlar V.I.Sibirin, O.Dmitriyevlar tarjima qilganlar. Toshkentda ham N. Strijkov tarjimasida “Bliki”deb ataluvchi kitobi rus tilida chop etildi.

Mustaqillik yillari Olimjon Xoldor ijodida ancha siljishlar ko‘zga ko‘rinadi. Qator romanlar, dostonlar, dramalar, publitsistik qissalar va ocherklar yozadi. Uch jildlik saylanma va bir jildlik drama asarlari nashr etildi, “O‘zbekiston san‘at arbobi”, professor kabi yuksak unvonlar berildi.

Olimjon Xoldor ham ko‘plab shoirlar kabi nozik ko‘ngil egasi. U dard ichida yonadi. Ilhom kelganda o‘zini qo‘ygani joy topa olmaydi:

Maysalar o‘lan aytar,

O‘z dardi bilan aytar.

Buni ko‘rib –

Men – chi, tamom tutildim.

...Jilg'alar oqar soyga,

Chiroy qo'shib chiroyga.

Buni ko'rib-

Men she'r bo'lib bitildim.

Olimjon Xoldor ijodi xalqonaligi, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga yaqin turadi. Shoir qator termalarida yashash mazmuni, hayot falsafasi, insoniylik asosi masalalariga oydinlik kiritmoqchi bo'ladi. Har kim dunyoni o'z nigohi bilan ko'radi, o'z qarichi bilan o'lchaydi. Uning xalqona termalari ma'naviy – ma'rifiy quvvatga ega, badiiy pishiq durdonalardir. Uning mavzu ko'lami rango – rang. Buni quyidagi she'rlar misolida ham ko'rishimiz mumkin:

Bu dunyo bir karvonsaroy, kimlar kelib,

kimlar ketmas, bilib bo'lmas,

Kimlar hayron, kimlar vayron, kimlar sarson,

kim xoru xas bilib bo'lmas.

Kimlar tuldir, kimlar kuldir, kimlar uldir,

kimlar buldir, Tangri haqqi,

Muslimi kim, kofiri kim, kim o'tparast,

kim butparast bilib bo'lmas.¹⁷

(“Bilib bo'lmas” she'ridan)

Ko'ngil berib senga xato qilibman,

O'zimni o'zim men ado qilibman.

¹⁷ Olimjon Xoldor. Saylanma. III jildlik. Birinchi jild. “Sharq” nashriyoti; - T -2001.24- bet.

Yo'lingda ko'zlarim qachon kelur, deb,

Bilmay, yana jonim fido qilibman.¹⁸

(“Ko'ngil berib” she'ridan)

Fasllar almashur – qilmaydi xato.

O'zga tarovati bordir o'lkamning

O'z vaqtida kelur Respublikamning

Bahori,yozi ham, kuzi ham hatto.¹⁹

(“Kuz tarovati” she'ridan)

Olimjon Xoldor she'rlari mag'ziga odamiylik, mehr – oqibat, halollik, vatanparvarlik, fidoyilik kabi insoniy fazilatlar singib ketgan. Chin dildan qalb qo'rini berib o'qigan kitobxon buni anglashga aslo qiynalmaydi. Ayniqsa uning kindik qoni to'kilgan muqaddas zamin, ona yurt, Boburdek zotlarning beshigi bo'lgan go'zal Andijonga bag'ishlangan turkum she'rlari ana shu mehrdan, ana shu fidoyilikdan darak beradi. Olimjon Xoldorning “Jon –Andijon”, “Andijon bahori”, “Andijon tongi”, “Andijondan ketolmayman”, “Anjanlik”, “13-may, Andijon” kabi she'rlari “MenAndijonman” dostoni uning yurtga bo'lgan mehridan yana bir darakdir.

Andijonim, jonajonim,senga jonimdir fido,

Men bugun madhingni kuylab aylagayman iltijo:

...Mustaqillik barqaror – ko'z tegmasin bu o'lkaga,

Yurtimizdan ketmasin hech, hech qachon nuri ziyo.

(“Jon – Andijon” g'azalidan)

¹⁸ O'sha kitob.35- bet.

¹⁹ O'sha kitob.41- bet

Andijon, jon – Andijon, dovrug'ing ketsin yana,
Shuhrating – shoning jahonni qaytadan tutsin yana.
Sen kurash maydonida bo'lding muzaffar doimo,
Tog' o'par xirmonlaring osmoncha yetsin yana.

(“Andijon – payvandi jon” she’ridan)

Bugun so'lim bo'libdir Qashqadaryo qirg'og'i,
Sho'x boladay o'ynoqlar jilg'alarning irmog'i.
Jilg'alarning irmog'i sirimni senga aytsam,
Visol erur oqshomlar yurakkinam so'rog'i.

(“Andijon qo'shig'i” she’ridan)

Olimjon Xoldor mumtoz adabiyot chashmasidan ruhiy quvvat olib, “O'ttiz muxammas” rukni ostida adibning Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Husayniy, Bobur, Bedil, Mashrab, Amiriy, Nodira, Furqat, Ogahiy, Huvaydo, Chustiy asarlariga bag'ishlangan go'zal muxammaslari she'riyat ahlining bebaho boyligiga aylangan.

Qishni qish dermu azaldin qorsiz,
Gul ochilmas bulbul, bahorsiz,
Bazm bo'lmas “gulyoru” “alyor” siz,
Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulzor ichra gul topilmas xorsiz.

(Nodira g'azaliga muxammas).

Iste'dod, talant, mahorat faqat hajman katta asarlar yaratishdagina namoyon bo'lmaydi. Aslida,” yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek

keladigan g'o'ra ichiga qamab bera oladi".²⁰ Olimjon Xoldor "Yuz qatra" rukni ostida shaklan sodda, mazmunan boy asarlar yaratadi. Qatralarda falsafiy hikmatni, donishmand o'gitini, hayotiy tajriba ko'rgan insonning xulosasini shoirona yashirib, o'quvchi tafakkurini mushohadaga chorlaydi:

Yo'llar

Ko'kka yetar qo'llarim,

Oydin o'ng – u so'llarim.

Boshqa yo'lni bilmasman,

Xalqim yo'li – yo'llarim.

Falsafa

Yorug'lik bo'lmasa soya bo'lmas edi,

Jala, sel bo'lmasa qoya bo'lmas edi.

Besh panja teng bo'lib, benuqson bo'lsak gar,

Hech qanday falsafa – g'oya bo'lmas edi²¹

Lirik turning aql charxlovchi, fikrga, o'y va mushohadaga chorlovchi janrlaridan bir- bu tuyuq. Olimjon Xoldor "To'qqiz tuyuq" rukni ostida tuyuq talablarini to'la bajargan, so'z qudratini namoyish etgan. Bizga ma'lumki, tuyuqning formal – poetik xususiyatlari: a) hajm jihatidan to'rt misrali bo'ladi; b) aruzning ramali musaddasi maqsur vaznida yoziladi; v) omonimli qofiya yoxud so'z o'yini qo'llaniladi; g) ba'zan tajnissiz tuyuqlar ham uchrab turadi; d) mazmunan ko'pincha ishqiy xarakterga ega bo'ladi; e) kuyga solib aytishga mo'ljallab yoziladi.²²

Katta bo'lsang, o'qi, bo'l olim,dedi,

²⁰ Abdulla Qahhor hikmatlari. – T: O'zbekiston.1990.55 – bet.

²¹ O'sha kitob.198 -216 – betlar.

²² Boboev T. Adabiyotshunoslikka kirish, - T. O'qituvchi, 1979. 216 – bet.

Ko'ksida ishq Vatan o, lim, dedi.

Boburiy avlodisan, bilgil buni,

Andijonning Xoldor o'g'li, Olim, dedi.

Olimjon Xoldor ijodi haqida yana qancha gapirsak ham oz. Uning ijodi barkamolligiga kelajak avlod ham amin bo'lmoqda. She'rlari qariga singdirilgan turli mavzularni u o'zicha shunday yozgan emas. Qalbidagi jo'sh urib turgan tuyg'ular bunga turtki bo'lgan.

III.2.To'lan Nizom ijodida vatan mustaqilligi mavzusi.

She'r - qalb yolqini. U qalbning amri bilan dunyoga keladi. She'r – ruhning ovozi. Iztirob chakayotgan, yayrab – yashnayotgan ruhning ovozidir. She'r qalbning eng nozik va eng chuqur qatlamlaridan sizib chiqadigan shaffof tuyg'u. Tomchida olam aks etganidek unda shoir ruhiyatida yetilgan injular namoyon bo'ladi. Injular esa o'z bag'rida yurtning, xalqning sevinchlari, orzu – armonlari dardu quvonchlari zilzilasidan dunyoga keladi. She'riyat o'zi nima? degan savolga Taniqli rus shoiri Belenskiy shunday javob beradi: "She'riyat – bu chaqaloqning beg'ubor kulgisi, tiniq nigohi, sho'xchan quvonchdir. She'riyat bu dilbar yanog'idagi qirmizi ibo degandek teran, osmondek zangor ko'zlardagi sokin yoki tim qora ko'zlardagi chaqmoqdek otash, marmar yelkalari uzra yoyilgan qo'ng'iroq sochlar to'lqini, kumush ovozidagi so'limlik, ohangrabo takallumidagi musiqa, qaddi – qomatining mavzunligi, jozibador harakatlaridagi go'zallik va xuzurbaxshlik... She'riyat - bu, o'spirinning tuganmas kuch barq urgan o'tli nigohi, uning matonati va shijoati, orzularga chanqoqligi, osmonni ham yerni ham otashin bag'riga mahkam bosish, ado bo'lmas hayot jomini dast ko'tarib bo'shatish istagidagi betiyiq shiddati...

She'riyat – bu, nuroniy keksaning nursiz ko'zlaridagi sokin yolqin, serajin yuzlaridagi mehrdek muloyim, hayoldek teran samoviy ifodasi, titroq, uzoq ovozidagi osoyishta, benihoya samimiy ohangi, mag'iz va muhim so'zlari, donishmand lablaridagi mehribon va ulug'vor tabassum...

She'r shoirning shaxsiy tuyg'ulari yig'indisidan emas, balki u mansub xalqning ulkan qalbidagi dardu quvonchlar zilzilasidan dunyoga kelib, ijtimoiy ma'no kasb etadi. Shoirning har qanday shaxsiy she'rlari qatlamlariga ham davr va umuminsoniy tuyg'ular singdirilmog'i kerak, aks holda she'r zavqi torayadi, uning umrboqiyiligiga putur yetadi.

Shoir qalamidan to'kilgan satrlar mag'zida biz uning eliga, yurtiga muhabbatini, bu yurtning shoirgagina ma'lum bo'lgan qirralarini, bu xalqning

go'zal va oliyjanob fazilatlarini ko'ramiz va ko'z oldimizda bu yurt va xalq butun borlig'i bilan gavdalanadi. Shu jihatdan olganda, shoir yurti va xalqining qalb olamini o'zida aks ettiruvchi badiiy ko'zgudir.

Biz ta'kidlayotgan bu xususiyatlar poytaxtdan olisda yashab, ijod qilayotgan ijodkorlarda yanada boshqacharoq ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ular o'z asarlari qariga atrofida yashayotgan kishilarning pokiza va samimiy tuyg'ularini, bu yurtning o'z muammolarini dalillar bilan olib kirishga intiladilar. Ular o'zlari yashab turgan mintaqalaridagi masalalar katta masalalarning bir zarrasi ekanligini badiiy dalillashga harakat qiladilar.

Ana shunday ijodkorlar safida yurtdoshimiz To'lan Nizomning ham borligi quvonarlidir. Shu o'rinda ulug' shoir Nekrasovning, "shoir bo'lmasliging mumkin, lekin xalqingning fidoiy fuqarosi bo'lishing shart", degan mazmundagi fikrlari beixtiyor yodga keladi. U ham fidoiy fuqaro bo'lish har narsadan oliy ekanligini chuqur anglab yetgan va buni o'z maqsad manziliga aylantirgan.

O'zbekiston qahramoni, buyuk adibimiz Said Ahmad To'lan Nizomning she'rlari, dostonlari, ruboiylaridan tashkil topgan "Saylanma" siga o'z dil istaklarini "she'r havosi"²³ nomi ostida quyidagicha bayon etgan edi: "Shunday kishilar bo'ladiki, ulardan birortasi davrada paydo bo'lsa, suhbatga fayz kiradi. Davra kengayib boraveradi. Bu xil odamlarning ko'ksida ohangrabosi bo'ladi. Ularni tortimi kuchli, suhbatlari jonon deb ataydilar. Ustozlarimiz G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzodalar ana shunday fazilatli insonlardan edi.

O'zbekiston xalq shoiri To'lan Nizomning asl ism – sharifi Nizomiddinov To'lanboy 1938 – yil 17 – avgustda Andijon viloyati Bo'z tumani "Ozod shirkat xo'jaligi Beshgul qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni 1959 – yilda tugatib, Andijon pedagogika institutida 1959 – 1965 yillarda sirtqi bo'limida o'qidi. Yoshlar tashkilotlarida rahbar (1965- 1976), tuman xalq ta'limi bo'limida mudir (1976 – 1983), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Andijon viloyati

²³ To'lan Nizom. Saylanma. She'rlar, dostonlar, ruboiylar. – T: 1998. 5- 7- betlar.

bo'limida mas'ul kotib (1983 – 1985), Bo'z pedagogika bilim yurtida direktor (1985 – 2001) lavozimlarida ishlagan.

To'lan Nizom o'z ustida uzoq ishladi va izlandi. Uning yozganlari hamqishloqlariga ma'qul bo'lsa – da o'zining ko'ngli to'lmasdi. Ayniqsa oliygohni tamomlagandan keyin yozganlaridan uyala boshladi. Matbuotga yubormay qo'ydi. Buyuk rus shoirlari Pushkin, Yesenin she'rlari uning doimiy hamrohiga aylandi.

To'lan Nizom nomi chiqqan shoir. Uning yigirmadan ortiq she'riy to'plam,dostonlari allaqachon o'quvchilar qo'lga tekkan va zukko she'rxonlarning mehrini qozongan. Ayniqsa, keying o'n yil To'lanboy uchun sermahsul bo'ldi. Bobur, Cho'lpon, Usmon Nosir, Saida Zunnunovalarning hayotini nihoyatda go'zal tasvirlagan dostonlar turkumini yaratdi.

Qo'limda To'lan Nizomning “Muqaddas ruh” va “Aks sado” kitobi. Ularda go'zal she'rlar,dostonlar, tarjimalar bor.

“Har qanday shoirning she'rlarida ham muhabbat guli ochilib turgan bo'ladi. To'g'rirog'i, shoir shunday deb o'ylaydi, umid qiladi. Ammo bu gulning hidi hamisha ham she'r muhlisini mast qilmaydi. To'lan Nizomning ishqiy she'rlarida o'ldim – kuydim degan ohlar yo'q. Uning lirik qahramoni toshdan – toshga urilib kelayotgan shalola emas, balki bir maromda oqayotgan soy. Ammo bu soyning moviy mavjlarida qaynoq hayot nafasi hukmron”.²⁴ Shoirning ushbu kitobiga nom bo'lgan ishqiy she'rlaridan biri “Muqaddas ruh “deb atalgan. Bu she'rda kuylangan ayollar shoirga zamondosh emas. Ular hatto real iymolar ham emas. Ular go'zallik timsollari. Shoir ana shu afsonaviy muhabbat ramzlari bo'lgan ayollarning muqaddas ruhini ko'zda tutib, fikr yuritadi.

Muqaddas ruh, pokiza hayol,

O'chmas sevgi, imon – e'tiqod.

Siz Gulsiz – qo'l yetmas hilol,

²⁴ To'lan Nizom. “Muqaddas ruh” –T,-1992 – yil. – bet.

Sizni dedi Alisherday zot...

Bu dunyoga kelgansiz asli

Layli bo'lib, Shirin bo'lib siz.

Sizning bilan yashnar ishq fasli,

Siz go'zallik shohisiz yolg'iz...

Keling endi, jon muhtarama,

Navbat menga, bering og'uni.

Umrim bo'yi men axtaraman,

Sizday Baxtni, sizday Qayg'uni.²⁵

To'lan Nizom "Muqaddas ruh" she'rida afsonaviy gullarga xos muhabbat totini qumsayotgani yo'q. U bizning fojiali davrda o'lib borayotgan ezgulik, samimiylilik, mehr – oqibatni qumsab, shu muqaddas ruhlar oldida ta'zim qilmoqda. To'lan Nizom she'rlaridagi eng maqbul fazilat o'zbekona ruhning balqib turishidir. Mana shu bizni qurshab turgan gulzorda ham boshqa chamanzorlardan allaqachon quvilgan, kimlarningdir nazarida yovvoyi bo'lib ko'ringan gullar o'sib, xandon ochilib turadi. Ular taratayotgan hid ham o'zgacha. Ana shunday tabiiylilik, o'zbek tabiatidan jilo olgan tuyg'ular To'lan Nizom she'rlarida mavjlanib turadi.

To'lan Nizom bolalar haqida ham ajoyib she'rlar yozgan. Uning "Andijonda bir qush bor", "Qaldirg'och", "Oftob ishq" kabi she'rlari bolalarning beg'ubor, sirli olamini ochishga qaratilgan. "Qaldirg'och" da shoir bolalarda ko'p uchraydigan qiyoslash, o'xshatish orqali fikrni bayon qilish xususiyatlariga ko'proq e'tibor beradi. She'r bola tilidan bayon qilinganligi uchun ham ular nutqiga xos tomonlarga ko'proq ahamiyat beriladi:

²⁵ O'sha kitob. – bet.

O, qaldirg'och, qaldirg'och,

Qora ko'zlaring qiyg'och.

Duming o'xshar xivichga,

Qanotlaring qilichga.

Oyoqlaring tim qora,

Tumshug'ing tig'day bor – a?

Bo'yinchangda oq sharf.

Bir ko'ray yaqin borib,

She'rda biror yaxshi fikrni xayyomona go'zal va ixcham ifodalashga kimlar qiziqmagan? Shu ma'noda she'riyatning ruboiy turi faqat sharqnigina emas balki, g'arbni ham o'ziga mahliyo etgan bejiz emas. Bu gal biz ruboiy maydoniga andijonlik shoirimiz To'lan Nizom qo'l urganining guvohi bo'lib turibmiz. To'lan Nizom ruboiylarida birinchi ko'zga tashlanadigan xususiyat mavzular rang – barangligi. Bunda shoirni hayajonga solayotgan muammolar oz emas. Ular yurtimizda mustaqillikni mustahkamlash, milliy iqtisodni ko'tarish, milliy mafkurani yaratishdir.

Shoir ruboiylarini o'qir ekanmiz, yana bir narsa ko'zga tashlanadi. Ularga biror rasmiy dunyoqarashning soya solayotgani yoki tazyiq o'tkazayotgani sezilmaydi. Shoir xohlagan va qalbini jizillatgan mavzularda qalam tebratgan. O'zining shaxsiyatini ham unutmagan. To'lan Nizom ruboiylari orasida ishq – muhabbat, do'stlik haqida nafosat bilan, chin yurakdan, ichki ruhiy ehtiyojdan kelib chiqib yozilgan quyidagi ruboiylarga duch kelamiz:

Do'stlik nima o'zi? Kim yaratadi?

Do'stsiz o'tgan damlar tez qaritadi.

Shorning chorak asrlik ijod xirmonidan bir chashma sifatida tuzilgan
“Muqaddas ruh” to’plamidan ustozlar g’azallariga bog’langan muxammaslari ham
o’rin olgan.

Ma’lumki, muxammas bog’lashning o’ziga xos nozik jihatlari bor.
Shulardan biri shakliy tomonlariga qat’iy amal qilish bo’lib, g’azal qaysi bahrda
bo’lsa, bog’langan satrlar ham aynan shu bahrda bo’lishi shart. Aks holda vazn
buziladi. Demak, vazn noqisligi ohang tebranishidagi bir xillikkka putur yetkazadi.
Muxammasnavislar diqqat qilishi lozim bo’lgan ikkinchi tomon mazmun bilan
bog’liq bo’lib, fikriy bog’liqlik, mantiq tadrijidir. Shoir bayti ustiga tashlangan uch
misra mantiqan bir – birini to’ldira borishi kerak. Masalaning bu tomoni To’lan
Nizomda qanday hal qilingan degan savolga umuman ijobiy javob berish mumkin.
Fikrimizni tasdiqlash maqsadida Boburning “Jamoling vasfini...” nomli g’azaliga
bog’langan muxammasdan bir band keltiramiz:

“Ishqing o’ti jonga tushdi, o’z – o’zimni unutgaymen,
Agar qarshimda tog’ bo’lsa, misli Farhod ushatgaymen,
Senga yetmoq uchun yovni, shiddat bila qulatgaymen,
Jamoling vasfini, ey oy, necha eldin eshitgaymen,
Ne kun bo’lg’ay visolingga meni dilxasta etgaymen”.²⁶

Demak, shoirning ustoz g’azaliga muxammas bog’lashdan muddaosi fikriy
yaqinlikni ko’rsatish, qolaversa, ustozga hurmat bajo keltirishdir. Masalaga mana
shu nuqtadan turib yondashadigan bo’lsak, To’lan Nizom ijodida bu narsa chiroyli
hal qilinganiga amin bo’lamiz. Navoiyning “Mubtabo bo’ldim sango” g’azaliga
bog’langan muxammasi ham juda mazmunga boydir:

“Ey pari, ko’z tushdi nogoh, mahliyo bo’ldum sango,
Dardim ortur dam – badam, oh, bedavo bo’ldum sango,

²⁶ O’sha kitob.284 – bet.

Men bugun o'lmakka rozi, ming rizo bo'ldum sango,

Ko'rgali husningni zoru, muftalo bo'ldum sango,

Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sango".²⁷

“Muqaddas ruh” kitobiga o'ziga xos latofat baxsh etib turgan she'rlar ichida “ona” mavzusidagilar alohida ajralib turadi. Shoirning Vatan, millat tuyg'ulari ko'rinib turgan she'rlarida ko'tarilgan badiiy fikrlar “She'r aytgim kelyapti, Onajon!” turkumida yanada teranlashtiriladi. Turkumga mansub she'rlarni bir – birlariga mantiqan bog'lab turgan timsol ona va farzand. Shoir farzandning onaga bo'lgan muhabbatini yanada ishonarliroq ifodalash maqsadida armon timsolini ham kiritadi. Lirik qahramon onadan erta ayrilgan. Uning og'irini yengil qila olmagan, “Sahrodan bir bog' o'tin orqalab kela olmagan” (Mirtemir) farzand armonlari shoir she'rlarining asosiy maqsadini tashkil qiladi. Elning nazarida ona dunyodagi barcha zotlarning mo'tabari. Uni e'zozlash, ardoqlash har bir farzandning iymoniy burchidir.

“Onam surati” she'rining lirik qahramoni qalbi ayriliq iztirobida qovriladi. Mangu yo'qotish uning diliga mangu hijron cho'g'larini tashlagan. U o'zini har yon uradi, tasalli qidiradi. Befoyda. Iztirob gulxanlari tobora alangalana boradi. U hayolan ona jamolini tiklaydi, u bilan ruhan suhbat quradi. Shoir lirik qahramon kechinmalarini tasvirlar ekan, bir o'rinda” Yolboraman, o'tinaman, surat jim” satrlarini keltiradi. Uning qalbini sog'inch o'rtaydi. U “Shoir bo'ldim hasratingni aytgani”, der ekan, onaning bir og'iz so'ziga mushtoq ekanligini ifodalaydi. Muallif qahramon kechinmalarini ifodalar ekan, og'zaki ijodga xos mubolag'aviy tasvirlardan unumli foydalanadi. U bir o'rinda:

Men yashayman izlaringga intizor,

Sog'inganda O'zbekiston menga tor,-

²⁷ O'sha kitob. 277- bet.

deydi. Lekin bu mubolag'a ham uning qalb olamidagi tebranishlarni, to'la ifodalay olmayotgandek. Shoir yana davom etadi:

Ko'z yoshim – suv, bog' unar chaman – chaman,

Oq suting, deb ilhomimni ichaman,

Jon – Turkiston, Ona- Yer, Ona – Vatan...

Yuqorida To'lan Nizom tabiatga xos fazilatlar haqida gapirib, uning ustozlariga bo'lgan samimiy hurmati she'rlarida takror – takror ifodalanganini e'tirof etamiz. Haqiqatdan ham, shoir uchun ruh muqaddas, uning ustozlar, ona va boshqa aziz kishilarga bag'ishlangan she'rlarida ruh ham o'ziga xos timsol darajasiga ko'tariladi. Buni yuqorida ham ta'kidlab o'tdik.

To'lan Nizom o'z so'zini davr ohanglariga moslab, mahoratning sirli so'qmoqlaridan asta odimlab borayotgan shoirlar sirasiga mansub. U yaratgan lirik qahramon o'zini ruhiy – psixologik jihatdan qayta qurib borayotgan inson. Endi unga hayqiriqlar, quruq madhu sanolar yoqmaydi.

Shoirning “Oy qizlar” nomli she'riy to'plami ham diqqatga sazovordir. Ushbu to'plamni shoir qizlariga ya'ni Gulshod, Ra'no, Yulduz va Bahorga bag'ishlagan:

Do'stlarim, mening ham to'ng'ich bolam – qiz,

Boshidan uch marta aylandi bahor.

Ko'zlari shahlodir, qoshlari qunduz,

Sho'xligi jilg'aning sho'xligicha bor.

Qiyqirib kuladi, o'ynar kaptarday,

Bu dunyo shodligin bermish tabiat.

She'rimga tutganim – toza daftarday

Eng oliy tuyg'ular – la qilgum tarbiyat!

Qizginam jilmayib nazar solgan chog',

Xo'rsinib olaman yuragim to'lib.

Butun hayollarim, o'ylarim tarqoq

Manglayin silayman soyabon bo'lib.²⁸

T. Nizom o'z ruboiylarida goh Navoiyga ergashsa, goh Boburdan andoza olmoqchi bo'ladi. Uning ruboiylari bu ulug'larning she'rlariga ruhan hamohang, shaklan esa o'zbek xalq ijodidagi to'rtliklarga yaqin. To'lan Nizomning ijodiy niyati o'zbek adabiyotida ruboiy sohasida Navoiy, Bobur yoqqan chiroqni o'chirmaslik. Mening nazarimda, To'lan Nizom "303 ruboiy" kitobi bilan shu chiroq yonida kulib turganday!²⁹

Bundan tashqari To'lan Nizom o'z piri komili bo'lmish Bobur hazratlariga muhabbati cheksiz. U avval ustoz g'azallariga muxammaslar bog'ladi, keyin unga bag'ishlab ko'plab she'rlar yozdi, ulug' shoir haqida doston bitdi. Voqealar uch zamin – Turkiston, Afg'oniston va Hindistonda bo'lib o'tadi.

T.Nizom Saida Zunnunova xotirasiga bag'ishlangan "Oq gul" (1996) nomli lirik qissa ham yozgan. Unda obrazlar, lirik kechinmalar, shirin xotiralar, armonli tuyg'ular ifodalangan. Bu asar ijodkor qismati haqida. Unda ikki ijodkor obrazi mayin, lirik kechinmalar, armonli tuyg'ular bilan birlashib mujassam bo'lgan. Oq gul poklik, bokiralik ramzi. U pokiza ruh timsolidir.

Hovlini supirib yuribdi opa,

Og'zi to'la kulgu, qalb to'la tuyg'u.

²⁸ T. Nizom "Oy qizlar" T; "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at" nashriyoti, 1991. 93 – bet.

²⁹ Nizom. T. Dahr bog'i. T: "Adabiyot va san'at", 1995. 2 – bet.

-Saidaxon, dedi adib bir daf'a-

Mana bu oppoq gul...Sizga o'xshsh u.³⁰

To'lan Nizom ijodi haqidagi tasavvurlarimiz to'la bo'lmog'i uchun uning dostonlari haqida ham mulohaza yuritmoq darkor. Doston ham xuddi drama kabi g'oyat murakkab janr hisoblanadi. Bu sohada biror bir jiddiy muvaffaqiyatga erishmoq uchun shoir astoydil mehnat qilmog'i, ko'p izlanmog'i zarur. T.Nizom bu janrga obdon tajriba orttirgandan keyin 90- yillarda qo'l urdi va qisqa muddat ichida bir nechta doston e'lon qildi. Bular 1991 – yilda Mirtemirga bag'ishlangan "Majnuntol yig'isi", Yana o'sha yili yaratilgan "Cho'lpon" dostoni, 1992 – yilda "Girya" dostoni, 1993 – yilda e'lon qilingan Mashrab qismati fojiasini umumlashtiruvchi "Ruhi ravonim" dostonidir. Bularning hammasi lirik dostonlardir. Bu dostondan so'ng shoir moziyning yanada olisroq manzillariga Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davrga adabiy sayohat qilib, bu ulug' shoh va shoir haqida "Uch so'z" dostonini yaratdi. Dostonda Bobur umrini boshdan oxir miridan – sirigacha hikoya qilib berishni maqsad qilib qo'ymaydi, faqat bu mag'lubiyat va zafarlarga, quvonch va qayg'ularga to'la hayotning eng muhim o'rinlarini aks ettirish orqali yaxlit poetik obraz yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Vatan mavzusi To'lan Nizom doimo qalam tebratadigan mavzu. U vatan ishq bilan sarmast, xalqimiz orzu – istaklari, quvonchu – dardlari bilan hamnafas shoir. Uning yuragida yolqinlangan ishq ko'plab she'rlarida Vatan madhi tarzida namoyon bo'ladi. Vatan haqida kuylar ekan, ona yurti jonajon O'zbekistonning suvratini chizishga harakat qiladi. Keyingi yillarda shoir she'rlarida ona yurt jamolini konkret manzaralar, esda qoladigan hayotiy detallar orqali chizishga harakat qilgan. U hatto o'lkaning kichik bir bo'lagini, yurtning bir parchasini qalamga olganda ham, undan butun o'lkaning muattar hidi anqib turadi:

Saraton chog'ida qavjirar yaproq,

Nay chalar ariqcha, hovuz jimillar.

³⁰ Nizom.T "Oq gul" Andijon; 1996, 4 – bet.

Ko'chmanchi ko'lanka ko'lday imillar.

Bunda bog' na qilsin?

Shabada sarin.

Ketmon. Etik. Yana g'o'za qatorlar...

Quyishdan qizg'onib qari chinorlar,

Bag'riga tortadi dehqon qizlarni.³¹

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng yozilgan she'rlarda Vatan sur'atini chizishda yangi tamoyillar paydo bo'la boshladi. Shoir endi ko'proq ona yurtning tarixdagi o'rni, insoniyat ma'naviyatini shakllantirishdagi xizmatlari haqida fikr yuritadi, o'tmishda o'tgan ulug' bobokalonlarimizning ruhlariga tavallo qiladi, ular bilan fikrlashadi. Endi uning she'rlarida ona yurtimiz – ko'hna Turkiston yuksak va pokiza imon o'lkasi sifatida tasvirlanadi.

Necha oykim Boborahim Andijonda yashadi,

Tug'yonlari Ilamishday qirg'og'idan oshadi.

Zahiriddin Muhammadning izlarini o'padi,

U tug'ilgan o'shal qutlug' hovlini ham topadi.³²

³¹ T. Nizom. Vatan surati, T.; "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at", 1996. 346 – bet.

³² T. Nizom. Aks sado, T.; "Cho'lpon" nashriyoti, 1994 –yil, 25- bet.

III.3.Tursunoy Sodiqova ijodida obrazlilik.

O'zining quvonchi alamlarini rang – barang tuyg'ular orqali ko'rsatmoqchi bo'lgan ijodkor o'tgan har bir daqiqaning qadriga ko'proq yetadi. Chunki u har bir soniya uchun o'zida mas'uliyat hissini tuyadi. Shuning uchun ham shoir hayotdan, avvalo, go'zallik qidiradi. Har daqiqa go'zalligini mangu lahzalarga aylantirishni istaydi:

Yashamoqni kuylash so'zi,

Bordir, rasm azaldir.

Lekin o'tar har on o'zi

Ming g'azaldan go'zaldir!³³

deya kuylaydi Tursunoy Sodiqova.

Shoira Tursunoy Sodiqova nozik ta'b, o'tkir didli, nafosatli adibalarimizdan biri. Shoira, adiba, voiz Tursunoy Sodiqova 1944- yilda Andijon shahrida tavallud topgan. U o'rta maktab tahsilini Toshkent shahridagi 82 – maktabda olgan. 1966 – yili Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. 1966 – yildan 1978- yilgacha Andijon shahridagi 15 – maktabda, 1978 -1993 – yillarda Andijon Tillar Pedagogika oliygohi va Andijon Davlat universitetida dars bergan. 1991- 1995 – yillar davomida Andijon viloyat Ayollar qo'mitasiga rahbarlik qilgan. 1996 – 2003 yillar orasida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida bo'lim mudirasi lavozimida ishlagan. Tursunoy Sodiqovanning shu kungacha "Izlay – izlay topganim", "Mehr qolur", "Hazrati ayol", "O'g'lim, qizim senga aytaman", "Rizolik izlab", "Yashash tilsimi", "Atirgul isi", "Ayolga qasida", "Dildagi dur", "Baxt qayerda", "Quyoshlarim, oylarim..." kabi o'nlab kitoblari chop etilgan. 2009 – yilda Xitoyda uyg'ur tiliga o'girilgan "Saylanma" si nashr qilingan.

³³ Halim Karim "Andijondan esgan sabolar", "Hayot" nashriyoti, - Andijon, 2010.50 – bet.

Tursunoy Sodiqova urush davri farzandi. Binobarin, hayotning achchiq chuchuklaridan boxabar. Shuning uchun ham uning she'rlarida umid, e'tiqod, yaxshi odamlar va yaxshi kunlarga ishonch bosh o'rinda turadi. U o'rta maktabdan so'ng 1961 — 1966 yillarda Toshkent Davlat dorilfununida tahsil olgan. Dastlabki mashqlari shu yerda paydo bo'lgan. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni,"Shavkatli mehnati uchun" hamda "Shuhrat" medallari bilan taqdirlangan. U ikki qiz, ikki o'g'ilning onasi, o'n nafar nabiraning buvisidir. Bo'lg'usi shoira avval maktablarda, so'ngra yoshlar tashkilotlarida ishlagan. Uvali-juvali, viloyat va respublikada yaxshi tanilgan, e'tiborli jamoatchi hamdir. Uning birinchi she'ri 1961 yilda «Lenin uchquni» ro'znomasida bosilgan. Hozirgacha beshdan ortiq to'plamlari chop etilgan. «Qizlar daftari» (1973) she'riy turkumining tashkilotchilari va mualliflaridan biridir. Shoiraning birinchi she'riy guldastasi «Kuy» nomi bilan 1978 yilda chop etilgan. Ha, chindan ham yaxshi she'r — orombaxsh kuydek kishiga huzur bag'ishlaydi. Tuyg'ularni qitiqlab, orzu-o'ylarga, hayollarga yetaklaydi. Tursunoyning ushbu «Kuy»ini o'qisang, tinglasang arziydigan kuy. Kuy bo'lganda ham orombaxsh kuy. To'plamdagi she'rlar bir-biridagi fikr va g'oyani to'ldirib boradi. Eng muhimi yangi-yangi fikr bo'lib tug'iladi, fikrlarga, tuyg'ularga yetaklaydi.

«Ko'zlarim» she'riga quloq soling-a:

Qarashlarim humorida emish allakim,

Kimlargadir orom bo'lib qo'nar ko'zlarim.

Allakimni tentiratar hasad tunida,

Do'st qalbida kunduz misol yonar ko'zlarim",³⁴

desa, «O'quvchimga» she'rida endi yuqoridagidek maftunkor va afsunkor, jozibali va sadoqatli yor timsolida emas, balki mehribon murabbiy, kechirimli ona sifatida

³⁴ Sodiqova T. "Kuy", - Toshkent, 1978. 57 – bet.

namoyon bo'ladi. To'plamdagi ko'pchilik she'rlar katta bir dard bilan, zo'r zarb bilan yozilganligini his etish qiyin emas.

Ma'lumki, ona mavzusi muhabbat mavzusi kabi boqiydir. Shoiri ona haqida kuylar ekan, hech kimni, hatto o'zini ham takrorlamaydi. Loqal uning «Armonlarim» she'ridagi so'nggi: «Uchrashmagan uchrashuvlar qoldi yo'llarda...» misrasiga e'tibor bering-a?! Ha, bu misrada qancha armonlar, o'ylar, tuyg'ular bor? Xullas, Tursunoy she'rlari goh o'ynoqi, sho'x, shalolalardek zavqli, qudratli, ba'zi she'rlari og'ir, vazmin, o'y-xayolga toldiruvchi, inson, hayot, muhabbat va taqdir haqida yana ham chuqurroq o'ylashga da'vat etuvchidir. U «Firoq» degan bir she'rida daryoga murojaat etib: «Betoqatsan, toshqin oqasan» degan edi. Shoiraning keyingi «Iqbol» (1984), «Dil gavhari» (1985) she'riy to'plamlaridagi ko'pchilik asarlarida ham ana shu holat ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Mazkur to'plamlarning birinchisida agar insoniy his-tuyg'ular, g'urur, inson ve ezgulik, oliyjanoblik va chin muhabbat kuylansa, keyingi guldastasida lirik, falsafiy ohangdorlik yetakchilik qiladi.

Borsam onam: “Jonimga jon qo'shgani,

Men esam – chi, tashib qo'sha – qo'sh g'amni,

Nuqul bolam tashvishida sayrardim,

Joningizga jon bo'lmadim, onam – a!

Der edingiz: “Cho'nglar ichra cho'ngimsan,

Tursunxon, deb atang mening bolamni!”

Saltanatim bugun sindi cho'p misol,

Sultonligim yetimlikka talandi,

Sizdan keyin xon bo'lmadim onam – a!

Tevaragi to'kis bolam, boy bolam,

Tursunboyim, deya alqab o'tdingiz.

Ming bir kamim tegramda charx ura ham,

Yuragimda tog'lar bino etdingiz,

Sizdan keyin boy bo'lmadim, onam – a!

Istarangni nurdan qildi xudoyim,

Tursunoyim, oy bolamsan, dedingiz.

Ul to'kislik bugun qani, oyimim,

Nur uzatgich quyoshim siz edingiz,

Sizdan keyin oy bo'lmadim, onam – a!

Sizdan keyin oy bo'lmadim

Boy bo'lmadim, xon bo'lmadim,

Hargiz butun jon bo'lmadim,

Onamo' – o' – o' – o'v, onam – a..."

Tursunoy Sodiqovaning she'riy ijodi faqat tabiat tasviri – yu, lirik tuyg'ular talqinidan iborat emas. Avvalambor, shu ruhdagi she'rlari ham, tabiat va tuyg'u orqali mohiyatini shaxs bag'ridagi chuqur ijtimoiy dardlarni, muammolarni yoritishga qaratiladi. Bundan tashqari uning ijodida bevosita jamiyatdagi muhim ijtimoiy muammolarni badiiy talqin etishga bag'ishlangan she'rlar ham oz emas.

G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy har bir tushunchaga mukammal ta'rif berar ekan, fikrni go'zal va nafis badiiyat libosiga o'rab, o'quvchiga taqdim qiladi. Uni o'qir ekanmiz, ifodalarning go'zalligi, so'zlarning mahorat bilan tanlanganligi bizni maftun qilishi tabiiy hamda so'zlar jilosidan, raqsga tushayotgan mazmun xiromidan adibga tahsinlar o'qiymiz.

Insonga estetik ta'sir o'tkazishda, ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishda so'zlovchining so'z tanlash mahorati alohida o'rin tutadi. Adabiyot – keng gulzor, undagi har bir gulning o'z ifori, o'z tarovati, o'z nafosati bor. Qaysidir kitobda quyidagicha fikrlar keltirilgan edi:” Har bir shoirning butun ijodiga ko'rk bag'ishlab turgan bitta she'ri, o'sha bitta she'rdagi bitta qatori, o'sha bitta qatoridagi bitta so'zi bo'ladiki, hamma yozganlari bir yon-u, u bir yon bo'ladi”.

Mustaqillikka qadar va undan keyin qalam tebratgan ijodkorlar orasida Tursunoy Sodiqovaning ham o'z o'rni, so'z “ifor”i bor. Uning qalamiga mansub bo'lgan she'rlar, esse – badialar ta'sirchanligi, qarashlarning, fikrning teranligi bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi.

Dunyoda bolam deb kuyunib o'tar,

Farzanddan kutsa gar shirin so'z kutar,

Topgan tutganini beminnat tutar,

Mo'mina onangni boshingga ko'tar.³⁵

Badiiy asar mazmunini ro'yobga chiqaruvchi, mazmunini reallshtiruvchi birdan – bir vosita bo'lib, u badiiy til, poetik til deb ham yuritiladi. Badiiy adabiyot tili adabiy til bilan chambarchas bog'langan, umumxalq tiliga asoslangan, jonli va adabiy til boyliklarini aks ettirgan, yozuvchilar tomonidan pardoziqlangan, jilolangan til hisoblanadi. Shu ma'noda adabiyot so'z orqali badiiy tasvirlash san'ati bo'lib, badiiy adabiyot tili adabiy asarning mazmunini ro'yobga chiqaruvchi birdan – bir vosita hisoblanadi. Tasviriylik, emotsionallik, obrazlilik, tipiklashtirilganlik, xalqchilik, lakonizm va aforizm badiiy tilning asosiy xususiyatlaridan. Adiba Tursunoy Sodiqova ham hayotiy voqealar, inson shaxsi, go'zallik tushunchalarini shu tariqa so'z yordamida yangi jihatlardan tasvirlashga, o'zgacha ma'no yaratishda so'zning rangdor bo'yoqlaridan, tilning imkoniyatlaridan foydalanadi. U ayol haqida gapirib, shunday misralarni bitadi:

³⁵ Sodiqova T. “Atirgul isi”, - T.: “O'zbekiston”, 2007 – yil. 21- bet.

“Ayoli bor uyning ro’zg’ori kambag’al bo’lsa ham, mazasi totli”. Ushbu misrada kambag’al va totli so’zlari antiteza san’ati orqali qarshilantirilib, o’xshatish asosida ushbu misraning ta’sir kuchi va jozibasi orttirilgan. Xuddi shunday holatlarni she’riyatida ham ko’rishimiz mumkin.”Seni kelar deb...” nomli she’rini o’qir ekanmiz, mahbubaning o’z mahbubi, yorini qanday intiqib kutgani, intizor damlaridagi ruhiyatiga fasllarning qay tariqa ta’sir ko’rsatgani, aniqrog’i, fasllarning injiqliklari mahbubaning ichki kechinmalari bilan qay darajada uzviy bog’langanini ko’rishimiz mumkin:

“Xabar keldi. Qaytar emishsan.

Seni qish – la kutmayin deya,

Gullar terib tutmayin deya,

Bahor qizni chorlab edim man.”³⁶

Ushbu dastlabki bandda intiqlikdagi ma’shuqaning yorining kelishi haqidagi darakka munosabati go’zal obrazlarda tasvirlangan. Keyingi bandlarda ma’shuqaning bahorga aylanib, yorning yo’llariga chiroyini to’kib, atrini sohib turishi, yurakdagi kirlari, hijron dilga solgan dardi darakning o’zi bilan yuvilib ketgan edi...

Tabiatni etgach pokiza,

Gilam yoydi olib sepidan.

Majnuntolning shoxiga rosa

Ko’k marjonlar taqdi ketidan.

Bu bandda tabiatning oddiy ko’rinishlari: bahor kelgach tog’ – u toshlar, qir – u adirlar, dala – dashtlarda maysalarning unib chiqishlari; majnuntoldan tortib barcha dov – daraxtlarning barglari kurtak yozib, barg chiqarishi juda mohirona tasvirlab berilgan.

³⁶ O’sha kitob

Shoira Tursunoy Sodiqovanning “Gul fasli” deb nomlangan bitigiga nazar tashlar ekanmiz,”ijodkor ko’zi”ga tik boqib, dunyoni u ko’rgan ranglar jilosida ko’rganday bo’lamiz.

“Behi guli- oq kapalak,

Quvlar uni shabboda.

Gulga to’lmish yer – u falak,

Atir yog’ar havodan.”³⁷

Shu banddan ham ko’rishimiz mumkinki, behi gulini oq kapalakka o’xshatib ajoyib o’xshatish qilib, ayni darxtdagi har bir bo’lajak mevaning ibtidosi oq kapalakday “qanotlar” ini yoyib turmayaptimi?!”Quvlar uni shabboda” – meva darxtining oppoq bo’lib gullagani – yu mayin shabbodaning ana shu gulni quvlab kelgani, gulni shabbodaga sir boy bermay nozlanayotgani, ammo shabboda “oshiq” ham ahdidan qaytmay “oq kapalak” ning qulog’iga tinimsiz o’z izhorini qilayotganini ko’z oldimizga keltirishimiz mumkin.

Ta’kidlaganimizdek, bahorning tarovati, nafosati insonni bir ko’rishdayoq o’ziga rom qilib,insonni lol qiladi. Hayotidagi eng ma’sum, eng totli damlarini yodga soladi, qalbiga ilqlik olib kiradi.O’zini umrining eng gullagan davridagiday – “O’n sakkiz yoshi” dagiday his qiladi. Qish soya solgan yuzlarga nur tushib, harorat tegib, qizillik yuguradi, tabassum jilva qiladi. Bizning ko’z oldimizda butun borliq go’zallikka to’ladi, har yon, har qadam gulga – lolaga to’ladi:

“Yuzim lola, izim lola,

Lola emish ko’ylagim.

Bahorday sho’x, zavqqa to’la

Paytim bir dam o’yladim...”³⁸

³⁷ Sodiqova “Atirgul isi”, - T,:”O’zbekiston”, 2007 – yil. 51- bet.

³⁸ O’sha kitob. 64- bet.

III.5. Halim Karim – Istiqloldan ilhomlanib.

Hislarim qog'ozda titraydi sekin,
Hayolim so'zlaring sehriga uchgan.
She'r shavqidan shodon yursam – da, lekin
Shoirligim menga qimmatga tushgan.

...Ona Andijonning aziz tonglari
Tunlari tushimda bo'lasiz zohir.
Duo qiling meni sahar onlari,
Bir kuni bo'larman albatta shoir.³⁹

Shoir va adabiyotshunos Halimjon Karimov 1960 – yilning 11 -martida Andijon shahrida temir yo'l xizmatchisi oilasida dunyoga kelgan. Shoir dastlab shahardagi 15 – o'rta maktabni, 1977 – yilda Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'z MU) filologiya fakultetini 1982 – yilda tamomlagan. Uning “Mana, men borman” nomli she'rlar, “Tuyg'ular talqini” nomli maqolalar to'plami, “Tarixiy shaxs va badiiy obraz” nomli monografiyasi, ellikka yaqin ilmiy, adabiy – tanqidiy, ijtimoiy – siyosiy mavzulardagi maqolalari nashr etilgan. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Hozirda Andijon davlat universitetida ishlaydi.

Respublika matbuotida ko'plab she'rlari, 20 dan ortiq ilmiy, adabiy – tanqidiy maqolalari e'lon qilingan. 1995 – yilda “Mana, men borman” nomli she'rlar to'plami, 1998 – yilda “Tuyg'ular talqini” nomli adabiy- tanqidiy maqolalar kitobi 2010 – yilda “Yurak bilan so'zlashuv” she'riy to'plami, 2017 – yilda “Ko'ngil halovat istaydi...” nomli she'riy to'plamlari nashr etilgan. Shoir Andijon viloyat Bobur jamg'armasi mukofotiga sazovor bo'lgan. Shoir Halim Karim she'rlari tag

³⁹ Halim Karim. Yurak bilan so'zlashuv. –T: “Akademnashr”, 2010. 26 – bet.

zamirida avvalo Vatanga muhabbat, yurt oshuftaligi, vatanga bo'lgan farzandlik mas'uliyati kabi oliy tuyg'ular singdirilgan.

Men sizdan roziman osuda damlar,
Sukunat qarida hayqirdi qalbim,
Sokinlik bag'rida ikk bora axir,
Shuurimga singdi Vatanim, Xalqim!⁴⁰

Ko'pchilik shoirlar tabiatiga xos bo'lgan sokinlik qidirish Halim Karim tabiatiga ham xosdir. Sokinlik bu lirik qahramon o'zini o'zgalardan olib qochib, bir chetda halovat izlab o'tirish emas albatta. Sokinlik shoirning hayol og'ushiga g'arq bo'lgan oni, falsafiy fikr, teram mushohada yuritgan oni, o'tmishni bir lahzada o'zining nazaridan o'tkazib, buyuk kelajakni uzoq tasavvur etgan damlar deb o'ylashimiz to'g'ri bo'ladi, albatta.

Yurak hansiraydi, rangim oqarib,
Junbushga keladi qaltiragan his.
Tong ham ota boshlar asta bo'zarib,
Ko'zimdan ketmaydi yerga boqqan qiz.⁴¹

Shoirning "Yurak ahvolini ma'lum qiladi" she'rida shoirning cheksiz armonlari, yuragining tubiga cho'kib qolgan dardlari, ulgurmay qolgan ishlari oniy lahzalarda qalbiga nashtar bo'lib sanchiladi.

Yurak
Umr poyoni uzoq emasligidan
bermoqda darak.
Eh! Uzoq emasligidan...

⁴⁰ O'sha kitob 4- bet.

⁴¹ 18-bet,

Shukur,

Jussamga yarashmagan

irodam bor

Yurak

Umr poyoni uzoq emasligidan

bermoqda darak...

Shoshilmoq kerak!

Eh! Yozib qolmoq kerak,

Qalbda

Yara bo'lib qolgan hislarni...

Shoir urush mavzusi yoritilgan she'rlarida hozirgi tinch zamonada yashayotganimizga shukronalik hissini yorqin namoyon etib bera olgan.

... Tinch zamonda, shukur, tug'ildim,

Janglar sirin bilmoq urundim.

Qirg'inlarning ma'nosin uqmay,

Hayronlikdan qotdim, bo'g'ildim.

Shoir bu kunlarning shukronasi bilan yashaydi. U bu kunlarning qadrini yanada ko'proq tuyadi.

Seni deganlarim bekordir, bekor,

Ont ichganim yolg'on kechib bu jondan.

Millat degani ham qilayapman or,

Xalqim qolmadimi zarra imondan?!

Bolam arzonmidi bir burda nondan?!

Qahrli kunlarning qahratonida

Musofirga uyning to'ri bergan.

Sen eding! Urushning saratonida

O'n yetti yetimni boqib, kiydirgan!

Istiqlol yillarida Halim Karim she'riyati yanada gulladi, o'zining yangi qirralarini ko'rsatdi. Uning anchadan beri nashr etilmay kelayotgan she'rlar to'plamlari nashr etila boshlandi. Shoir bu kunlarning shukronasi bilan yashaydi. U bu kunlarning qadrini yanada ko'proq his etadi. Shoir ona vatanga bo'lgan muhabbatini istiqlool davrida yanada balandroq, yanada baralla kuylashga ilhomlari jo'sh urgan vaqtda tug'ilib o'sgan joyi Andijonga atab she'rlar yozishga kirishadi. Bunga yorqin misol tariqasida o'zining "Ko'ngil halovat istaydi" she'riy to'plamidagi "Andijon" she'rini olishimiz mumkin:

Bir yangi so'z aytarmikanman,

"Yetarmikan mendagi imkon.

Ta'rifingni eplarmikanman,

Bolang bo'lib, ona Andijon.

Bolang bo'lib ne ham qilibman,

Yaroldimmi biron koringga.

Shuncha yashab endi bilibman,

Asqotmabman yo'g' – u boringda".⁴²

deya shoir vatani oldidagi burchi va vazifasini o'tay oldimmi degan o'y bilan yonayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

⁴² Halim Karim. Ko'ngil halovat istaydi.,- T.; "Turon zamin ziyo". 2017. 20 – bet.

Halim Karimning ushbu she'riy to'plamga kiritilgan she'rlari qatorida yurtboshimiz Islom Karimov vafotidan so'ng uning xotirasiga yozilgan "Marsiya" ham kiritilgan:

"Tirqirab ketdi – ku ko'zimdan yoshim,
Nogoh egildi – ku mardona boshim.
Endi pishganida damlangan oshi
Birdan so'nib qoldi millat quyoshi..."

Ismi Islom edi muqaddas so'zdek,
Yurtga yarashardi uzukka ko'zdek.
Endi qaddin tutib olganda O'zbek,
Nogoh so'nib qoldi millat quyoshi".⁴³

ushbu marsiyadan ko'rishimiz mumkinki, shoir ham boshqa yurtdoshilarimizdek chuqur qayg'uga botgan.

Muxtasar qilib aytganda, istiqlol barcha sohalar kabi ijodkorlarga ham erkinlik, ozodlik, o'z so'zini qisinmay emin – erkin oshkor qilishni, ilhom vaqti yetganda tug'ilajak go'zal she'rlarni barilla aytish imkonini berdi. Bunday imkondan Halim Karim ham unumli foydalanib, ijodini yanada ko'klarga bo'y cho'zishiga zamin hozirladi va bunga erishmoqda.

⁴³ O'sha kitob. 10- bet.

III.4. Nabi Jaloliddin she'rlarida vatan va ishq tarannumi.

Har bir ijodkor shaxsiyati, uning istedodining shakllanish tarixini biz uning bosib o'tgan hayot sanalaridan, ijod bekatlaridan anglaymiz. Shu jihatdan, o'zbek adabiyoti zahmatini qariyb qirq yildan buyon o'zining qismati deb bilgan, ongli hayoti va istedodini adabiyotimizning turli tarmoqlari rivojiga bag'ishlagan shoir, mohir nosir, taniqli journalist Nabi Jaloliddin 1962 – yilning 2 – mayida Izboskan tumanining Jonobod qishlog'ida tavallud topgan. Bo'lajak shoirning bolalik yillari shu qishloqda o'tgan. Maktabda o'qib yurgan paytidayoq she'r yozishni boshlab yuborgan. Yosh Nabijon o'zicha bir nimalarni qoralar, she'r chiqarishdan ko'ra yozishga ishqibozligi kundan kun ortib borar edi. Albatta bo'lajak shoirning jajji yuragida doimiy bir to'lqinlanish va she'r yozishga da'vat hissi urib turar edi. Hayotni hali nima ekanligini bilmagan bu murg'ak qalbning bolalikda to'qigan she'rlarida shoir o'zi ta'kidlaganidek, “hissiyot to'lig'u hayot juda sayoz” edi. Ana shunday she'rlaridan biri 9 – sinfda o'qib yurgan paytida tuman gazetasida “Oq oltinim” sarlavhasi ostida bosilib chiqdi. Bolalik she'rlarida Nabi Jaloliddin ijodining keyinchalik voyaga yetadigan ayrim jihatlari aniq sezilib turardi. Uning qalbida she'riyatga oshuftalikning paydo bo'lishida adabiyot o'qituvchisi G'ulomqodir Kamolovning xizmatlari katta bo'lgan. Hayotning achchiq sinovi uni bolalikdanoq qurshab oldi. Juda erta ota – onasidan ayrildi. Shu shoirning abadiy armoni bo'lib qoldi. Bu armon bolaligida ko'z yoshlarida sizib oqqan bo'lsa, keyinchalik satrlar bag'riga singib bordi:

Otamni olib ketdi,

Onamni olib ketdi,

Hali yurakdan yig'lashni o'rganmay,

Non oqizoq qilgan damlarim o'tdi.

Endi u suvlarda

O'ylarim oqadi tinmay.

N. Jaloliddin 1981- 1983 yillarda yigitlik burchini Afg'onistonda o'tadi. Armiya hayoti, Afg'oniston o'lkasida ko'rgan, bilgan voqealar hayot sahifasining katta bir bo'lagi bo'ldi. Keyingi yillarda yozgan asarlari uchun real manbaa va mavzu bo'ldi. 1998 – yilda yozgan “O'limning rangi” qissasida aynan Afg'on yurti voqealari tasvirlangan bo'lib, yozuvchi N. Jaloliddinning yurak to'la armonlari, yigitlik qalbiga muhrlanib qolgan, kiprigi ostida joylashib olgan qonli urushlar tafsiloti real tasvirlarda o'z ifodasini topgan.

Nabi Jaloliddin yuqori oliy tahsilni Toshkent davlat universiteti(hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) ning jurnalistika(1983-1988 – yillar)fakultetida davom ettirdi. Chunki poytaxtdagi adabiy hayot, adabiy muhit Nabi Jaloliddin kabi yosh istedodlar uchun zo'r imkon maktabi edi. Nabi Jaloliddin uchun adabiyot ko'ngil izhori bo'lgan.U 1990- yildan boshlab qaynoq ijodga sho'ng'idi. Uning “Yalpizli kecha”(1993), “Hur nido”(1996),”Sen bilan qolmayman”(2002), “Ko'ngil ozod”(2008),”Endi kuz”(2014) kabi she'riy to'plamlari,”O'limning rangi”, “Kovak”,”Bolalar” qissalari, “Hayyom” romani nashrdan chiqdi. Uning ijodiga mansub,”Tegirmon” romani “Sharq yulduzi” jurnalining 2015 – yilning boshlang'ich sonida chop etildi. Roman Cho'lpon obrazining badiiy talqiniga bag'ishlangan. Nabi Jaloliddin she'rlarining diqqat markazida hayotning abadiy muammolari turadi. Shoir she'rlari borliqdagi har bir hodisa, ijtimoiy – madaniy hayotdagi har qanday o'zgarish haqida aks- sado beruvchi she'riyatdir. “Dod”, “Ko'ngilga”, “Odam”, “Umr”, “O'zim avval, o'zim oxir” kabi she'rlarida hammadan ortiqroq sevinadigan, boshqalardan ko'proq kuyunadigan, hayotni chuqurroq his etadigan ehtirolari bir olam bo'lgan inson sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. She'rlarida hayot hodisalarini faylasufona mushohada etib, shoirona ifoda etadi.

“Sabr!Sabr”, desa Sarvarim,

Sabrni yutolmay yutunsam.

Qismat bitik falak daftarin

Qayta yozmog'ini o'tinsam.

Nabi Jaloliddin she'rlarini o'qir ekanman, shoirligiga nisbatan yaxshi shoir nisbatining o'zi kamlik qiladi nazarimda. Boshqalarga o'xshamagan, hayotga teran nigoh bilan qaray oladigan, undagi har bir hodisada sir – sinoat, hikmat borligini ko'ra oladigan faylasuf shoir, o'z yurtini jon dildan sevgan, u bilan cheksiz faxrlangan fidoiy inson sifatida taassurot qoldirdi.

Shoir she'riyati mavzu jihatidan rang – barangdir. Ishq va Vatanni kuylash tuyg'usi, xalq orzu – umidlari, onaga ehtirom, otaga hurmat madhi, ijodkor dunyosi, insoniyat umrining mohiyati yoki ona zamin va insoniyat taqdiri masalalari shoir she'riyatining g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Shoir nazdida barkamol inson o'z ona tuprog'ini ko'ziga to'tiyo aylay oladigan, Vatanini jondan – da ortiq suya oladigan, uni o'ziga qibla joyi deb biladigan, uni ko'z qarog'ida asray oladigan shaxsdir. Vatan mavzusi bu ko'hna mavzu. Bu mavzuga murojaat qilmagan ijodkor bo'lmasa kerak albatta. O'zbek adabiyoti tarixida bir necha mumtoz shoirlarimiz ijodida ham turli janrlarda turlicha ohangga solib kuylangan. Nabi Jaloliddin ham o'z salaflari qatorida bu mumtoz obraz tasviri, tavsifi va talqiniga butun ijodi davomida murojaat etib keldi. Bu mavzu uning “O'zbekiston”, “Vatan”, “Vatanni anglash”, “Yurtim”, “Jonim Vatan”, “Bag'rimda bir qo'shiq kuylar”, “Turkiston armoni”, “Turkiylar” kabi o'nlab she'rlarida aks etgan.

Nabi Jaloliddin she'rlarida xalqning o'tmishiga ehtirom, yurtga muhabbat, insoniy burch, nozik tuyg'ularning, kishilarga xos bo'lgan kechinmalar jozibali tarzda kuylanganiga guvoh bo'lamiz. Uning ijodi rang-baranglikka, g'oyasi falsafiylikka yo'g'rilgan. Quyida shoirning vatan tuyg'usi, vatan madhi kuylangan she'rlarini tahlil etsak. “O'zbekiston” she'ridan olingan ushbu parchani bir o'qishdayoq kishi qalbida yurtning ajib tasviri nomoyon bo'ladi.

Onajonim oq sutidan dilga cho'kkan iforim,

Falaklari qish yopinsa, mangu yashar bahorim.

Bilamizki, inson yuragiga bor hislatlar-u illatlar ona suti bilan kiradi va umr bo'yi ular shakllanib, o'sib boradi. Shoir vatanni shunchaki sut bilan jonimga kirgan deyish bilan cheklanishni istamaydi va vatanni dilga cho'kkan ifor, muattar is deya ta'riflaydi. *“Falaklari qish yopinsa, mangu yashar bahorim”* bunda “qish yopinishi” faqatgina yurtdagi fasllar aylanishidagi tarovati emas, vatan o'tmishidagi bosqinlar, istilolar va ularning ta'siridan omon chiqqan ko'hna zaminning taqdiriga ishora bor. Keyingi satrlarda bu tasvir kuchi yanada ortadi.

Yo tangrining kiprigidan to'kilgan yosh bir tomchi,

Yo ninachi qanotida silkinganim oh, orim.

Suv bor joyda hayot yashnaydi, suv bor joyda el ko'karadi deydilar. Ijodkor ana shu fikrga ishora etgan holda O'zbekistonning gullab-yashnashiga sabab, unga Olloh nazari tushganligini yurtimiz sarhadlarini ikki azim daryo chegaralab turgani va vatannning yashnashiga, yuksalishining boisi ham ana shu tangrining nazari, kiprigidan to'kilgan tomchi yosh sabab ekanligini ajoyib tashbeh bilan bera olgan.

Jimit loshim nelar qilay,

o'zing jismim, o'zing jon.

Bir yelkamda do'zax bo'lsa,

bir yelkamda jovidon.

Vatanni ta'riflayotgan shoir qalbdagi vatan bo'lsa, tana-yu jism ham vatanga aylanadi deb e'tirof etadi. Demak, mening o'zim ham vatan ekanman bir yelkamda do'zax, bir yelkamda jannat bor deya dadil aytadi. Bu satrlari orqali shoir vatanning nechog'lik buyukligini, vatan muhabbati tilda emas, dilda bo'lishini, inson o'zini vatanning bir qismi, bir zarrasi deb bilmas ekan uning yurtga bo'lgan ishqini haqiqiy bo'lmasligini aytmoqchi bo'ladi. U vatan to'g'risidagi she'rlarida chinakamiga dilini ochadi, barcha hislarini oshkor qiladi, kayfiyat va kechimlarini pardalab yashira olmaydi, dildan o'z vatani bilan

sirlashadi, o'zining og'riqli kechinmalarini oshkor qiladi. Nabi Jaloliddin ta'rificha, Vatanning chin o'g'lonining o'z yurti yo'lidagi orzusi va maqsadi shunday:

Tuproq'ingda tuproq bo'ron

bo'lsam degan bolangman,

Oftobingda kuyib – kuyib

o'lsam degan bolangman.

She'rni mutolaasi jarayonida kitobxon beixtiyor tuprog'i to'tiyo, "o'shal mulki samodagi oydin Oyi", "mangu yashnar bahori" bo'lgan bu ulug' diyorga, elni aziz qilgan aziz makonga qulluq qiladi. Biroq, shoir shunga ham qanoatlanmay yurtdoshlariga qarata murojaat qilib, vatanni anglash tuyg'usini o'rgatadi:

Bir oz to'xtang!

Samoga boqing!

Chekkasini ko'roldingizmi?

Axir osmon shunchalar yaqin-

Aytguncha bor faqat bir so'zni.

Endi esa ko'zingiz yuming!

Qattiqroq,

Og'rib ketsin kipriklar joni,

Og'ridimi?

Aylandimi boshgingiz ming?!...

Asrang o'shal achishgan joyni,

Asrang ming – ming aylangan joyni!...

She’rda shoir o’z zamondoshlari bilan muloqotga kirishib, ularni qiyin savollar domiga tortadi, ular javobini kutib o’tirmay o’zining qat’iy fikr va xulosalarini beradi.

“Endi kuz...” yangi she’riy to’plamida o’rin olgan “Turkiston armoni” she’rida tarixdan kelgan sadolar va qadim xalqning qalbi tub – tubiga cho’kib qolgan armonlarini shoir ko’nglida kechgan o’y – mushohadalarni satrlarga tizadi:

Bukilmagan tizim, vale sochqinim,

Temur bayrog’ini olmagan, hayhot!

Titilgan bir tanim, o’zdan qochqinim,

Buyuk saltanatni aylagan barbod.

G’animi o’ziga qo’ygan tuzog’im-

Qirg’iz, turkman, tojik, o’zbek, qozog’im!

Shoir Vatanni turli shaklda turlicha kuyladi. Ammo har birining barobarida vatanga muhabbat hissi yotadi. “Bag’rimda bir qo’shiq kuylar” she’ri o’quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi. Shoir el – yurt tarixi, qismati, dardini kuylashni o’ziga ham qarz, ham farz deb biladi:

Moziylar qatida davronlaring bor,

Davronlaring surgan sultonlaring bor,

Ham qonlar yutganing zamonlaring bor,

Endi moviy – moviy osmonlaring bor.

Vatan haqidagi bu kabi she’rlari markazida qayg’uga cho’mgancha iztirob bilan mushohada yuritayotgan o’ychan inson obrazi turadi. U o’tmishni o’rganishga, uni bugungi kun bilan bog’lashga urunadi. Bugungi hurlik, tinchlik kunlar uchun qanchadan – qancha qonlar yutgan moziyning zamonlari haqida o’ylaydi, mushohada qiladi. Shoir “Vatan “ deganda, avvalo, odamlarni – o’tgan,

bugungi va kelgusi avlodlarni nazarda tutadi. Vatanga bo'lgan muhabbatini o'z so'zi va o'z ovozi bilan izhor etadi. Shoir o'z yurtini shonli – shavkatidan gapirganda shunchaki gapirmaydi, oddiy kuylamaydi, so'zlarni, tasvir –u tashbehlarni qofiyaga solish bilanгина chekinmaydi, balki she'rxon larzaga soladigan, o'yga toldiradigan olovli satrlar og'ushiga g'arq etadi. Shoir she'rlarida, xususan, vatan tuyg'usi ifodasida ham ba'zan dag'alroq so'zlarga xos bo'lgan ohanglar ham uchrab turadi. Bu holat shoir she'riyatiga salbiy ta'sir o'tkaza olmaydi.

Ishq – muhabbat mavzusi qadimiy ko'hna mavzulardan. Bu mavzu hech qachon eskirmaydi, zamon yoki makon tanlamaydi. Nabi Jaloliddin kishilar qalbini hayratga soluvchi, entiktiruvchi, havaslantiruvchi, bu sirli tuyg'uni “ko'ngilning oliy kuylari” deb ta'riflaydi. “Muhabbat bahoriy yomg'irim” deya tashbehlaydi. Shoirning “Endi kuz” nomli she'riy guldastasi to'rt faslga bo'lingan. Shuning ikkinchi fasli “Marhabolar, Laylim, sarson eliga!” deb nomlanib, bundan o'rin olgan 40 ta she'ri ishq – muhabbat mavzusida yozilgan. Sevgi haqidagi bu she'rlarida ishq tufayli butun olam go'zallikdan iborat bo'lib ko'ringan qalblarning orzu – havaslari – yu, bu sirli tuyg'uning insonni gohida adoqsiz alam va iztirobga solishi haqida so'z yuritiladi. Shoir lirik qahramon sog'inchini shunday izhor qiladiki, beixtiyor bu tuyg'u she'rni o'qigan o'quvchi qalbiga ham ko'chadi:

Yuragim chirqillar, ko'zlarim

Yomg'irday- yo'lingga yog'ildim.

Har kiprik jon talash bo'zladi,

Seni juda – juda sog'indim.

Lirik qahramon muhabbat sog'inchidan iztirob cheksada, alamzada emas. Qalbi sevgi sururi bilan to'lgan oshiqning ayni damdagi hayajonu hissiyotlarini ifodalashda so'zlarning mazmundorligi musiqiy ohangdorligi bilan uyg'unlashib ketadi. Shoir she'rlarida mumtoz adabiyotdagi yor va uning ozorlarini tasvirlashdan farqli ravishda she'rning ham tuzilishidagi ham mazmunidagi tomoniga zamona nuqtai nazaridan yondashishga harakat qilgan.

Kech kelganim sochim oqidan,

Manzillar samo toqidan,

Asalginam, erkam, oqilam,

Dunyolardan qizg'oning meni.

“Dunyolardan qizg'oning meni” she’ridan keltirilgan ushbu misralardagi “asalginam”, “erkam”, “oqilam” so’zlari bugungi she’riyatda uchrayotgan zamonaviy so’zlar hisoblanadi. Doimo mashuqani o’zgalardan qizg’onguvchi oshiq bu safar yorga murojaat tarzida buning aksini undan so’ramoqda. Bu kabi misollarni juda ko’p keltirish mumkin. Yuqorida keltirib o’tganimiz mumtoz adabiyotdan farqli o’laroq, bugun ham ushbu mavzu o’z kuchini , ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Nabi Jaloliddinning quyidagi she’ri ham aynan shu ruhda yozilgan:

Men seni sevaman jonimdan, jonim,

Qolgani yolg’ondir, hammasi yolg’on.

Ko’ksimdagi manov yomon – yomonim

Faqat sening uchun majnundan qolg’on.

Lirik qahramonning sevikli yori uchun jonini fido etib o’rniga yorni jon deb atashi uning naqadar buyuk ishq sohibi ekanligini ko’rsatadi. Yordan ayrilishni o’lim deb bilgan oshiq uchun sevgidan o’zga barcha narsalar yolg’on. Yuragidagi sevgigina haqiqat. Bu haqiqat esa unga Majnundan qolgan. Bu so’zlar orqali oshiq yorni Majnunning sevgisi bilan sevayotganligini ta’kidlamoqda.

Nabi Jalolidin ijodida yuqoridagi kabi ishqiy mavzudagi she’rlar salmoqli o’rinni egallaydi. Undagi oshiq, yor obrazlarining tasviri uning shoir sifatidagi mahoratini ko’rsatib beradi. Uning ishqiy mavzudagi she’rlari ko’plab tadqiqotlarga asos bo’la oladi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, istiqlol yillarida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi ilm – fan sohasida ham o'zgarishlar, yangilanishlar yuz berdi. Mustaqillikdan keyingi davr adabiyotshunosligi ham yangilanishlarga uchradi. Ayniqsa, keyingi davr she'riyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Istiqlol tufayli millatimiz o'z erkini, ozodligini qo'lga kiritdi."Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlarni qo'yib, tinch – osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz"⁴⁴, - deb ta'kidlaydilar birinchi prezidentimiz Islom Karimov.

Istiqlol milliy adabiyotimizga erkin ijod qilish, badiiyatning go'zal namunalarini yaratish, ko'ngil buyurganini yozish, ma'lum qoliplarga tushib qolmaslik, kimlarningdir vosita quroliga aylanib qolmaslik imkonini, o'z yo'li va maqsadini o'zi belgilab olishi va bu yo'lda intilishiga qarshiliklar ko'rsatmaslik sharofatini hadya qildi.

Andijonlik yozuvchilarga ilhom bergan pokiza tuyg'u, avvalo, Vatan tuyg'usidir. Vatan to'g'risida she'r aytish, nasr bitish juda muhim, juda mas'uliyatli. Har kim ham Vatan haqida topib aytolmaydi, topib yozolmaydi. Chunki, vatan yagona, vatan muqaddasdir. Andijon yozuvchilari nazmda ham, nasrda ham adabiy bo'ston yaratishga tashna ijod ahli hisoblanadi.

Biz yuqorida ijodlariga alohida to'xtalib o'tgan andijonlik ijodkorlarimiz: Olimjon Xoldor, To'lan Nizom, Tursunoy Sodiqova, Halim Karim va Nabi Jaloliddin ijodini, avvalo, andijonlik yozuvchilarimizning – qalam ahlining ijodlarini chuqur samimiyat bilan e'tirof etgan holda, andijon adabiy muhitining zalvorli xazinalaridan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

⁴⁴ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat. 2011. 4- bet.

Xulosa o'rnida Olimjon Xoldor ijodida mavzu rang – barangligiga to'xtaladigan bo'lsak, shoir turli mavzularda o'ziga xos ijod qilgan. Xalqona termalar, muxammaslar, qatralar, tuyuqlar yaratgan. Uning termalarida yashash mazmuni, hayot falsafasi, insoniylik asosi masalalariga oydinlik kiritmoqchi bo'lgan. Termalari esa, rang – barang mavzularda yozilgan. Qatralarida falsafiy hikmatni, donishmand o'gitini, hayotiy tajriba ko'rgan insonning xulosasini yashirib, o'quvchini mushohadaga chorlagan. Tuyuqlari qatiga esa, ma'rifiy – ma'naviy, falsafiy qarashlarini joylaydi. She'rlarda vatan, onaga bo'lgan muhabbat, sevgi, tabiat manzarasi kabi ko'plab mavzularni qamrab olgan.

Shu o'rinda To'lan Nizomni alohida qayd etish lozim. Uning o'z davrida yetarli qadr topmagan, aksincha ranjitilgan Bobur, Mashrab, Cho'lpon, Usmon Nosir, Mirtemir, Saida Zunnunova haqidagi, shuningdek, “Girya”, don mustaqilligiga bag'ishlangan “Non isi” kabi she'riy qissalari o'zbek dostonchiligiga yangi ruh olib kirdi. To'lan Nizom ijodidan bahramand bo'lgan har bir she'riyatga oshno qalb o'zgacha bir shukuh sezadi. She'rlarida kuylangan Vatan madhi, ona muhabbati, zamindoshlar hurmati kabi mavzudagi satrlari jilosidan dillar yayraydi. Andijon farzandi ekanligidan cheksiz g'urur, shu yurtda istiqomat qilayotganidan faxr – iftixor tuyg'usini “Andijon farzandiman” she'ri ostida bayon etadi:

“Shu el shoiriman shu elni deyman!

Umrbod Andijon g'amini yeyman!

Xalqimni men rozi qila olsam bas

Ulug' xalq duosi menga muqaddas!”⁴⁵

Yana bir andijonlik ijodkorlarimizdan Tursunoy Sodiqova ijodining mavzu ko'lamini juda keng. Uning ijodining asosiy mavzusi sifatida ijtimoiy mavzuning yetakchiligiga guvoh bo'ldik. Tursunoy Sodiqova ijodi bilan tanishganimizda

⁴⁵ To'lan Nizom. Andijonnoma. 26 – son, 2013. 1- bet.

uning nafaqat shoira, balki asarlarining ichki boyligi jihatidan olib, tahlil qilib qaraganimizda uning ruhshunos adiba ekanligiga ham iqror bo'lamiz. Adiba asarlari bugungi kun turmushi uchun dasturulamal qo'llanma sifatida ham xizmat qilmoqda. Uning asarlarida oilaviy munosabatlar, insoniy qadriyatlar, jamiyatdagi turli muammolar kuylanadi. Tursunoy Sodiqova chin ma'nodagi ma'rifatparvar ayol edi. U qaysi mavzuda she'r bitmasin uni o'quvchi kitobxonga ta'sir qilish quvvati ham salmoqlidir. "Ayol so'zi" she'ri yozilganiga deyarli o'ttiz besh yil bo'lganligi, o'tgan asrning 70- yillari oxiri, 80- yillari boshida afg'on urushi tufayli farzandi dardida ko'ziga yosh olmagan yoki joni bo'g'zida turmagan o'zbek onasi qolmaganligi, she'r ma'lum muddat o'zbek ayollari – onalarining deyarli milliy madhiyasiga aylanib ketganligi asnosida she'r avvalida ayol zotining hislari poetik ta'riflanib, asta – sekin o'zbek ayoli fe'l – atvori talqin etishga o'tilgan. Shunday she'rlarini tinglagan kitobxon esa she'rdagi jarayonni ko'z oldiga keltiradi. Barcha she'rlarida obrazlilik yaqqol namoyon bo'ladi.

Halim Karim dunyoga o'zgacha ko'z bilan: hayrat bilan, oshuftalik bilan boqadi, ezgulikka oshno bo'lib yashaydi. Shoir umrini behuda o'tkazishdan, vaqtni besamar o'tkazishdan qo'rqadi. Shoir butun mehrini, qalb ardog'ini vataniga baxshida aylaydi, uning erkidan quvonadi, tarixi – boy, buguni – nurafshon, kelajagi porloq bo'lganligi uchun ham vatanni onaga tenglashtirib, onajonim deya suyadi, mehr ko'rgazadi. Shoir vatanimiz istiqloлга erishganidan so'ng ijodining kamolini yanada cho'qqilarga olib chiqishga erisha oldi. Istiqloл shoirga ilhom qanotlarini baxsh etdi. Uning turli mavzudagi va falsafiy she'rlarini o'qigan o'quvchi albatta chuqur mushohadaga toladi.

Xulosa o'rnida Nabi Jaloliddin she'riyatida xalqimizning buyuk o'tmishiga ehtirom, Vatanga muhabbat, farzandning ota- ona oldidagi burchi, yurak qarida yotgan nozik hissiyotlar, insoniy kechinmalar o'ziga xos tarzda kuylanishiga guvoh bo'ldik. Shoir hayot murakkabliklarini teran tasvirlaydi, qalamga olingan har bir mavzudan she'riy – falsafiy xulosalar chiqarishga intiladi. Uning she'riyati rang – barang. Ishq va Vatanni kuylash tuyg'usi, xalq orzu – umidlari, onaga

ehtirom, otaga hurmat madhi, ijodkor dunyosi, insoniyat umrining mohiyati yoki ona zamin va inson taqdiri masalasi – shoir she’riyatining g’oyaviy mazmunini tashkil etadi. Uning ijodida ishqiy mavzudagi she’rlar salmoqli o’rin egallaydi. Ulardagi oshiq, yor obrazlarining tasviri uning shoir sifatidagi mahoratini ko’rsatib beradi. She’rlarining o’ziga xosligi ularda lirik qahramon shoirning o’y kechinmalari uning hissiyotlari orqali ochib berilgan. Shoir g’oyaviy manzarani yaratishda badiiy timsollardan o’rinli foydalangan. Bir so’z bilan aytganda Nabi Jaloliddin ijodi o’ziga xosdir.

Ertasi bugunidan nurafshon, kelajagi buyuk yurtimizning taraqqiy qilishida millat vakillarining vatanparvarlik, yurtsevarlik, fidoiylik, ilmsevarlik- barcha insoniy fazilatlarining yanada takomilida andijonlik qalam ahlining xizmati, ulushi beadam bo’lishiga aslo shak – shubha yo’qdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I

- 1.Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T: ma'naviyat, 2011.
2. Karimov I.”Adabiyotga e'tibor- ma'naviyatga, kelajakka e'tibor”-Toshkent, “O'zbekiston”,2009.
- 3.Abdulla Qahhor hikmatlari. – T: O'zbekiston.1990.
- 4.Boboev T. Adabiyotshunoslikka kirish, “O'qituvchi”,-T: 1979.
- 5.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5- jild. “O'zbek milliy ensklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti” – T: 2006.
- 6.O'zbek tilining imlo lug'ati. “O'qituvchi” nashriyoti.-T: 2015.
- 7.XX asr mening taqdirimda. –“Jahon adabiyoti” jurnali, 2001 – yil, yanvar,
- 8.Qozoqboy Yo'ldosh. “Yoniq so'z”. Adabiy o'ylar – T: “Yangi asr avlodi”,2006.
- 9.Saydulla Mirzayev XX asr o'zbek adabiyoti – T: “Yangi asr avlodi” 2005.
- 10.Sharafiddinov Ozod. Uch cho'qqining biri. – “O'zAS”, 2001- yil, 23 – noyabr.

II

- 1.Halim Karim. Yurak bilan so'zlashuv, - T: “Akademnashr”, 2010.
- 2.Halim Karim. Andijondan esgan sabolar-“Hayot”. Andijon.2010.
- 3.Nabi Jaloliddin. Hur nido. – T: ”Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1996.
- 4.Olimjon Xoldor. Saylanma, uch jildlik, - T: “Sharq”, 2003.
- 5.Olimjon Xoldor. Saylanma. III jildlik. Birinchi jild. “Sharq” nashriyoti; - T: 2001.
- 6.Qamchibek Kenja. Andijon yozuvchi va shoirlari.-A: “Hayot” nashriyoti,2004,
- 7.Sodiqova T. “Kuy”, - T: 1978.
- 8.Sodiqova T. “Atirgul isi”, - T: ”O'zbekiston”,2007 – yil.
- 9.Sodiqova T. “Ayolga qasida”, - T: “O'zbekiston”, 2013.
- 10.To'lan Nizom. Saylanma. – T: “Sharq”. 1998.
- 11.To'lan Nizom. Saylanma. She'rlar, dostonlar, ruboiylar. – T: 1998.

12.To'lan Nizom "Oy qizlar" T; "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at" nashriyoti, 1991.

13.To'lan Nizom. Dahr bog'i. T: "Adabiyot va san'at",1995.

14.To'lan Nizom. "Oq gul" Andijon, 1996,

15.To'lan Nizom. Vatan surati T: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at", 1996.

III

1.Arxiv.uz

2.Kitobxon. uz

3.Kutubxona.uz

4.ZiyoNet.com

